

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI**

XOLBOYEVA DILNOZA SA'DULLAYEVNAning

“AVESTO”DA MIFOLOGIK OBRAZLAR
mavzusida yozgan

KURS ISHI

***Ilmiy rahbar:* f.f.n. Sh.Qahhorova**

Qarshi-2014

REJA

1. “Avesto” mifologiyasi va o’zbek xalq ijodi.
2. O’zbek folklorida Govmard obrazi.
3. “Hubbi” obrazining mifologik asoslari.
4. Aranja bobo kul’ining qadimiy ildizlari.

Xulosa

1. “AVESTO” MIFOLOGIYASI VA O’ZBEK XALQ OG’ZAKI IJODI

Badiiy adabiyotning inson kamolotidagi o’rni yuksak ekanligi barchaga yaxshi ayon. Zero, inson ko’ngil kechinmalari, nozik va nafis tuyg’ulari ifodasi bo’lgan so’z san’atining nazokati va sehru jozibasi asrlar osha jilolanib kelmoqda. Bu narsa mumtoz shoirlarimiz asarlari orqali yanada oydinlashmoqda. O’zbek mumtoz adabiyoti xalqimizning ma’naviy mulki, uning hayoti, shuuri, ruhiyati bilan chambarchas bog’liq. Mumtoz adabiyotimizni puxta o’rganish, buyuk san’atkorlarimiz hayoti, shaxsiyati, asarlarini talabalar, o’quvchilar qalbiga singdirishning ahamiyati bugungi kunda yanada yorqinroq namoyon bo’lmoqda. Yurtboshimiz I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek: «“...oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish va mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash” borasida juda ko’p islohotlar olib borilayotganligini alohida ta’kidladi.¹

Hozirgi jamiyat madaniyatining shakllanishi va uning ma’naviy hayotida o’tmish madaniy merosi juda katta ahamiyat kasb etadi, chunki tarix xotirasi, xalqning, jonajon o’lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o’zlikni anglashni, ta’bir joiz bo’lsa, milliy iftixorni tiklash va o’stirish jarayonida g’oyat muhim o’rin tutadi.

“Avesto” jahondagi eng qadimgi sug’orma dehqonchilik hamda xonaki chorvachilik xo’jaligi an’analari va ilk shahar madaniyati kelib chiqqan mamlakatimizda miloddan burungi VII-VI asarlarda yaratilgan muhtasham ma’naviy qadriyatimizdir. Bu kitob ezgu o’y, ezgu so’z va ezgu amal g’oyasiga asoslangan qadimiy e’tiqodiy ishonchlar majmui-zardushtiylikning

¹ Karimov I.A..2012-yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko’taradigan yil bo’ladi. “Xalq so’zi” gazetasi, 2012-yil, 20-yanvar soni

mo'tabar aqidalarini o'zida mujassamlashtirilgan muqaddas bitiklar majmuasi hisoblanadi.

Ma'lumki, bunyodkorlik va yaratuvchilik g'oyasi qon-qoniga singib ketgan bobolarimiz tuproqni e'zozlab, borliq tabiatga jon ato etuvchi suvni mo'tabar deb bilganlar. Ular uchun havoning musaffolagini saqlash, rizq-ro'zimiz manbai hisoblangan ona-zaminga mehr ko'rsatib, halol mehnat qilish va olovning hayotbaxsh yog'dusidan bahramand bo'lishdan-da ulug'vorroq bo'lmagan. Ajdodlarimiz tasavvurlarning izchil rivoji natijasida tuproq, suv va olovni mo'tabarlashtirish hamda hosildorlik, qut-baraka tilash g'oyalariga asoslangan tasavvurlar zardushtiylikning falsafiy asosini tashkil etgan. Bobolarimizning o'zlikni anglash va hayotning mohiyatini tushunishga qaratilgan ilk intilishlari tarixida muhim bosqich bo'lib xizmat qilgan bu din odamlarni ezgulikning buyuk qudratiga iymon keltirishga, halol-pokiza va mehr-muruvvatli bo'lishigamehnatni qadrlashga, tabiatning bokira go'zalligini ko'z qorachig'iday asrash, yaratuvchilik va bunyodkorlikni ulug'lashga undagan.

Uzoq o'tmishda yashagan ajdodlarimizning benihoya ulkan aqliy salohiyati va ijodiy iqtidori mahsuli ularoq yuzaga kelgan "Avesto"ning tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi alqov va rivoyatlar, zardushtiylik dinining marosim va rituallarida maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan kohinlartomonidan ijro etilgan. Shuning uchun ham bu ulug'vor ma'naviy qadriyatning yaratilishi va ommaviylashishi bilan bog'liq an'analari epos ijrochiligining shakllanishi, takomillashishi hamda O'rta Osiyo xalqlari orasida qadimdan taraqqiy yetib kelishida ham muhim o'rin tutgan.

Yurtimizning qadimiy tarixi, jo'g'rofiy tuzilishi, madaniy an'analарimizningo'ziga xos turmush tarzi, falsafiy tarzi, ahloqiy va ijtimoiy

qarashlari xususida boy ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan bu nodir ma'naviy obida Sharq xalqlari badiiy taraqqiyotida alohida bosqich bo'lgan xususan, o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodi epic an'alarining rivojiga "Avesto" syujetlari, motiv va obrazlar tizimi salmoqli ta'sir ko'rsatgan. Bu buyuk ma'naviy qadriyatimizning muayyan izlari o'zbek folklorida bugungi kunga qadar saqlanib kelayotganligi ham "Avesto"ning asosini tashkil etuvchi mifologik qatlam bevosita bizning o'lkamizda shakllangan qadimiy inonchlar tizimidan iborat bo'lganligidan dalolat beradi. O'zbek folklorining an'anaviy mifologik personajlari silsilasidagi dev, pari, ajdar, Semurg', aranglar, eranlar, Ashshadarozi, Qorasoch ona, Haydar, Arximan, Siyovush, Hubbi, Jo'mard, Ahman-Dahman, Ayamajuz, Xezim-xirmon, Gavomard, Jamshid, Bavoris bobo, Faridun, Gulli bibi, Qari olov xo'ja, O'tar, Xorut bilan Morut, Xurmuz, Zahhok, Sust xotin kabi obrazlarning qadimiy asoslari bevosita "Avesto"ga borib tarqaladi.

Zardushtiylik davrida yaratilgan mifologik tasavvurlarning aksariyati ajdodlarimiz badiiy tafakkurining ko'p asrlik tarixiy taraqqiyoti davomida epic janrlarning syujet tizimiga singib ketganligi bois "Avesto" mifologiyasining ayrim obraz va motivlar asosida yuzaga kelgan afsonalar hozirgi kunda ham xalqimiz orasida yuzaga kelgan afsonalar hozirgi kunda ham xalqimiz orasida saqlanib qolgan. Xuddi shunday afsonalardan birini biz 1988-yilda Buxoro viloyatida folklore ekspeditsiyasida bo'lganimizda qorako'llik 58 yashar Sharofat momo Murod Olim qizidan yozib olingan edik.

Afsonada aytilishicha, har yili bahorda Amudaryoda suv ko'payib, daryo toshib ketib va qirg'oqdagi hosildor yerlarning ko'pgina qismi suv ostida qolib ketarkan. Yoz oylarining boshlarida suv qaytib, daryo yana o'z o'rnida

oqa boshlarkan. Daryo toshgan paytda suv bosgan joylar esa qip-qizil unumdor yerlarga aylanarkan. Odamlar ana shunday daryo tashlab ketgan joylarni haydab, yer qilib, qovun-tarvuz, kunjut, tariq ekishar ekan. Bir bobo ham qovun ekibdi-da, shuning soyasida qovunini sho'x bolalardan qo'rimoqchi bo'libdi. Chotmani qurib bitkazguncha quyosh tikkaga kelib, tushlik payti ham bo'lib qolgan ekan. Bobo uyoq-buyoqdan o'tin terib kelib, tepalik ustida kichkina gulxan yoqibdi-da, qumg'onni olovga quyib choy qaynata boshlabdi. Bir mahal yer qimirlaganday bo'lib, haligi tepalik bir ag'darilibdi-yu, chang-to'zon ko'tarilib bobo ham, uning chotmasi ham ko'zdan g'oyib bo'lib qolibdi. Bu tepalik asosida Amudaryo suvi toshgan paytda daryodan suvi chiqqan kata laqqa baliq bo'lib, suv pasayganda bu yerlar sayozlik qilib o'zini daryoga ololmay qolib ketgan ekan. Bobo choy qo'yaman deb olov yoqqan paytda uning taniga issiq o'tib, bir, bir qo'zg'algan ekan, shunda bobo bechora baliqning tagiga yumalab tushib g'oyib bo'lgan emish.

Bu afsona syujetining qadimiy asoslari "Avesto"ning "ZAmyad" yasht nomli alqoviga borib tarqaladi. Bu yashtning 40-bandida bahodir Kerishaspning ajdahoni o'ldirishi voqealari shunday tasvirlangan:

Shoxdor ilon Serevarni-

Otlaru odamlarni

Yutguvchi ajdahoni

Kerishasp o'ldirganda,

Tani to'la sap-sariq

Zahrini sochib baland,

Og'usin nayza bo'yi
Sachratgan ul ilonni,
Kerishasp o'ldirganda,
Bunday ish bo'lgan edi):
Kun tikkaga kelgandi,
Kerishasp o'ziga
Bir do'nglikning ustida
Soldi bir qozon taom.
Ekan Serevar ilon...
Issiq o'tib taniga,
Bilinibdi joniga,
Terlab, u to'lg'onibdi,
Ag'darilibdiqozon
Qaynab turgan suv bilan.
O'zin chetga olibdi
Kerishasp qaytmas polvon.

Ko'rinadiki, Kerishaspning Serevar nomli shoxdor ilonni o'ldirishi haqidagi qadimiy mifda bu hayoliy jonzotning do'nglikka o'xshab ko'rinishi va qahramon uning ustiga chiqib, taom pishirish maqsadida o't yoqqanida, tanasiga issiq tekkan ilon jon holatda to'lg'onishi tasvirlangan. Bu mif syujetining arxaik shakliga xos motivlar va personajlar tizimi o'zbek xalq

afsonasida ham saqlanib qolganligi bejiz emas. Chunki “Avesto” mifologiyasining epic diffuziyasi natijasida do’nglikka o’xshab ko’ringan ajdar yoki ilonning ustiga chiqib o’t yoqqan qahramonning sarguzashtlari haqida hikoya qiluvchi turli xil afsonalar kelib chiqqan. Afsonaning Kerishasp obrazi bilan bog’liq variantlari, ayniqsa, xalq orasida keng ommalashib ketganligi tufayli “Gerishaspnoma” tipidagi asarlar ham yuzaga kelgan. Gershasp ajdarni yengish to’g’risidagi afsonaning bir varianti adabiyotshunos N.Mallayev tomonidan ham ommalashtirilgan:

“bir ajdar kishilarga ko’p baxtsizliklar keltiradi, qabilaning hayoti xavf ostida qoladi. Qahramon Gershasp ajdarga qarshi jangga otlanadi, ajdarning maskaniga qarab yo’l oladi. Gershasp tush chog’ida qadar ajdarni qidiradi, biroq uni topolmaydi. U o’t qalab ovqat pishirmoqchi bo’ladi. Ajdar shunchalik kata ekanki, Gershasp ancha vaqt uxlab yotgan ajdarning ustida aylanib yursa ham, uni payqamagan ekan va o’z o’chog’ini uning ustiga qurgan ekan. O’t ajdarning uning badanini qizitibdi. Ajdar vazmin qimirlay boshlabdi. Shundan keying Gershasp ajdar ustida kezib yurganini payqab qolibdi. Lekin Gershasp vahimaga va sarosimalikka tushmabdi, qurollarini mohirlik bilan ishlatibdi, ajdarni yengib, kishilarni halokatdan qutqaribdi”.

Afsona syujetining barcha epic talqinlariga xos mushtarak jihatlaridan biri qahramonning ulkan ajdar (yoki uning ilon, baliq singari ramziy-mifologik timsollari)ni do’nglik deb o’ylab, bilmasdan uning ustiga chiqib o’t yoqishi motividir. Ma’lumki, qadimgi mifologiyada ilon bilan baliq hosildorlik va suv kul’ining zoomorf timsollari o’laroq tasavvur qilingan. Shunga ko’ra yuqoridagi o’zbek xalq afsonasida daryo toshuvidan bo’shagan yerga qovun ekilishining tasvirlanganligi ham mazkur syujetning genezisi o’lkamizda daryolar sathining tabiiy ko’tarilishi bilan bog’liq holda kelib

chiqqan ilk sug'orma dehqonchilik madaniyati an'alarining shakllanishi davridagi agrar kul'tlar bilan aloqador mifologik inonchlarga borib tarqalishini ko'rsatadi.

Ajdar yoki baliqning do'nglikday bo'lib ko'rinishi motivining tarixiy asoslari esa olamning yaratilishi haqidagi samoviy miflar bilan aloqadordir. Dunyo xalqlarining eng qadimiy miflari talqiniga ko'ra, ilon zaminni ko'tarib turuvchi samoviy jonzot hisoblanadi.

Suv ustida yaratilgan birlamchi zaminni ilon ko'tarib turishi haqidagi mifologik qarashlarining tarixiy rivoji natijasida bu jonivor yerning samoviy tayanchi sifatida tasavvur qilina boshlangan. "Avesto"ga singdirib yuborilgan qadimiy afsonada Kerishaspning ajdarni do'nglik deb o'ylashi ham ana shu qadimiy mifologik ishonchlarga aloqador motiv bo'lib, ilon-ajdarning do'nglik shaklidagi ko'rinishi ilk zamin haqidagi qarashlarning samoviy mifologiyadagi epic talqinidir.

"Avesto"da keltirilgan bu mifologik afsona syujetining o'zbek folklorida qayd qilingan variantida ilon detail o'rnida laqqa baliq timsolining qo'llanganligi ham bu motiv zaminning ibtidosi to'g'risidagi qadimiy inonchlarga aloqadorligini inkor etmaydi. Chunki samoviy mifologiyada baliq ham ilon singari zaminning tayanchi vazifasini bajaruvchi zoomorf timsollar sirasiga kiradi. Yevroosiyo xalqlari mifologiyasida baliq zaminning yaratilishiga sabab bo'luvchi (ya'ni baliq tomonidan ummon tubidab olib chiqilgan loydan ilk zamin bino etilgan deyiladi) yoki uni ko'tarib turuvchi jonivor sifatida tasavvur qilingan. Xususan, buryat asotirlarida aytilishicha, samoviy ummonda suzib yurgan bu baliq qaltisroq harakat qilsa, yer qimirlar emish.

Baliq kul'ti va u bilan bog'liq mifologik qarashlarning kelib chiqishiga asos bo'lgan bunday tasavvurlar turkey xalqlarning qadim ajdodlariga ham ma'lum bo'lgan birlamchi manba-suvidir. Ummonda suzib yurgan mifologik qahramon, ya'ni o'lgan o'z onasi Oq enaning maslahati bilan zaminni yaratgan va dastlabki yer parchasi suvga cho'kib ketmasin uchun uni Kerbaliq deb ataluvchi uchta ulkan nahangning ustiga o'rnatgan emish.

Qadimgi turkiylar Kerbaliq yoki kyorbaliqni suv osti olamida yashovchi afsonaviy jonzot sifatida tasavvur qilishgan. Go'yo zaminning osoyishtaligi ham ana shu baliqlarga bog'liq emish. Agar kerbaliqlar suv tubiga sho'ng'isa yoki boshini yuqori ko'tarishsa, yer qimirlab, daryolar o'zidan toshib ketar ekan. Shuning uchun Mangdi Shira degan afsonaviy bahodir bu baliqlar dumiga bog'langan arqon vositasida ularning harakatini o'z izmida saqlab turarkan. O'zbek xalq afsonasida laqqa baliqning daryoga qaytib ketolmay tepalikdan bo'lib qolib ketishi motivining bevosita toshqin bilan bog'liq holda talqin qilinishi ham qadimgi mifologiyadagi baliq obrazi yerning tayanchi sifatida tasavvur qilinganligini ko'rsatadi.

Ulkan baliq haqidagi bunday mifologik inonchlar "Avesto"da ham o'z ifodasini topgan. Kara deb ataluvchi bu g'aroyib baliq Vorukasha qo'lida suzib yurar va uning o'rtasida o'suvchi hayot daraxtini qo'riqlar ekan. Kara va Kerbaliq atamalarining bir-biriga o'xshashligiga ko'ra bu afsonaviy baliq haqidagi mifologik qarashlarning qadimiy asoslari mushtarak zaminga borib tarqaladi deb tasdiqlash mumkin. Demak, olamning yaratilishi va samoviy tuzilishi to'g'risidagi samoviy miflar talqiniga ko'ra, baliq zaminni ko'tarib turuvchi afsonaviy tayanchlaridan biri sifatida tasavvur qilingan. Ma'lumki, miflarda moddiy olamning tuzilishi gorizonta va vertical yo'nalishlar bo'yicha tavsiflanadi. Baliq hamisha vertical samoviy qurilishining mifologik

unsurlaridan biri sifatida ishtirok etadi. Ya'ni u zaminning jonzot ko'rinishida tasavvur qilingan baliq to'g'risidagi arxaik miflarning epic rivoji natijasida shakllangan elementidir.

Kerishaspning ajdar ustida o't yoqib, taom pishirishi motivini Aji-daxaka va Tretaona jangining mifologik talqinlari tizimida tahlil qilgan S.P.Tolstov bu mif zardushtiylik bilan aloqador qadimiy marosimlaridan birinchi o'zida aks ettirgan deb hisoblaydi. Uning fikricha, "Avesto"ning XIX yashtida afsonaviy ajdarni o'ldirgan Kerishaspning ulkan ilon jasadi ustiga chiqib o'ziga omad bergan ilohlar haqiga qurbonlik marosimini o'tkazishi tasvirlangan.

Bizningcha ham mazkur afsonaning barcha variantlari mavjud bo'lgan bu motivning zamirida qadimiy qurbonlik marosimining asotiriy talqinlari mujassamlashgan bo'lgan, epic qahramonning tepalikday bo'lib ko'ringan ilon yoki baliqning ustida ayni tush payti olov yoqishi esa quyosh kul'tining ifodasidir.

"Avesto" mifologik syujetlarining muayyan bir qismi o'zbek xalq dostonlari, ertak va afsonalarining an'anaviy motivlar tizimini shakllantiruvchi epic asos vazifasini o'tagan. Ana shunday syujet elementlaridan biri o'zbek folkloridagi sehrli pat bilan aloqador epic motivlar silsilasidir.

"Zar kokilli yigit" ertagida tasvirlanishicha, qahramon yalmog'iz kampirning uyidagi qirqinchi xonani ochib, uch arg'umoq ot bilan uchta g'aroyib qushni qutqarganida otlar dumlarining tolasidan, qushlar esa bir dona patidan berib, "boshingga bir mushkul ish tushib qolgudek bo'lsa, bitta pat bilan bir tola qilni o'tga tashlasang, darhol yordam yetib kelamiz",

deyishibdi. Oltin sochli bola podshoning shartini bajarish maqsadida ana shu patlarni kuydirganida qushlar hozir bo'lib, uning mushkulini oson qilishibdi.

“Guliqahqah” ertagida esa chinor ustiga uya qurgan qushning bolalarini ajdar xurujidan saqlab qolgan Tillo kokilga o'sha qush bir dona patidan beradi. Tillo kokil oynayi jahonnomada ko'ringan qizni topib kelishida shu patni tutatib, sehrli qush yordamidan foydalanadi.

Qush patining magik xususiyatiga egaligi haqidagi xalq qarashlari “Kenja botir” ertagida ham o'z badiiy ifodasini topgan: ertak qahramoni chiroyli oltin pat topib oladi. Shu pat bilan qo'zichoqlarning sag'rini silaydi va ular bir-ikki silkinib, semira boshlaydilar.

O'zbek xalq ertaklarida magik xususiyatga ega bo'lgan sehrli ashyolardan biri sifatida qo'llanilgan qush pati detail an'anaviy poetic timsollardan biri bo'lib, epic qahramonga ko'maklashovchi homiy kuchlarga aloqador mifologik tasavvurlarini o'zida aks ettirganligi bilan xarakterlanadi. Epic qushlarining qahramonga o'z patina berishi motivi turkey xalqlar folklorining mushtarak syujet elementlaridan biri hisoblanadi. Xususan, S.Qasqabosovning ma'lumotlariga qaraganda, “qozoq xalq ertaklarida Samruk degan ulkan qush polvonlarini qutqargan qahramonni yer osti olamidan yorug' dunyoga olib chiqadi-da, bir dona patina berib ketadi. Qahramon o'z boshiga mushkul ish tushganida ana shu patni quydirib, Samrukni yordamga chaqiradi. Bu tipdagi ertaklarning barchasida qush patining magik xususiyati bevosita olov yordamida, ya'ni kuydirgandagina namoyon bo'ladi. Bu esa olov ham qadimda magik xususiyatga ega deb qaralganini ko'rsatadi”.

Qush patining g'aroyib xislatga egaligi haqidagi mifologik tasavvurlarga asoslangan epic motivlar o'zbek xalq dostonlarida ham uchraydi. Masalan, "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida homiy-personaj qahramonga ikki dona par berib: "Parlarning xosiyati shuki, badaningga surtsang gohi yosh bo'lasan, gohi qaritoblanib, har xil odam bo'lib qolasan. Oq parni badaningga surtsang qora odam, qora parni suykasang qora soqol bo'lib qolasan",-deydi.

Magik xususiyatga ega bo'lgan sehrli par bilan bog'liq epic motivlar bu turkumga mansub boshqa dostonlarda ham mavjud. Xususan, "Gulixiromon" dostonida tasvirlanishicha, Gardonshohning pistirmasiga duch kelib, yaralangan Avazxon behush yotganida, xiromon uning ustiga kelib qoladi. U o'z yoriga yordam bermoqchi bo'lib, sochini boshiga tuyib, jangga otlanar ekan, Avazxonning sehrli patlar to'g'risida aytgan so'zlari esiga tushadi: "Avazxon aytgan edi: "Oq parni, ko'k parni xosiyati-bu nisbi Chambilda davlatdi, kishi yov zo'rlik qilganda ko'k parni manglayiga sursa, xuddi dushmanlarning o'ziga o'xshab qoladi. Oq parni G'irotning manglayiga sursa, xuddi dushmanlarning otiga o'xshab, cho'mmoq bo'lib qoladi. Oq parni G'irotning manglayiga sursa, xuddi dushmanlarning otiga o'xshab, cho'mmoq bo'lib qoladi". Xiromon bu parlarning birovini otga, birovini o'ziga surtdi.

"Xushkeldi" dostonida esa Qaldirg'och maston o'z yurtiga kelgan qari chol Go'ro'g'li ekanini bilib, yoqasidan tutib, Xunxorshohning xuzuriga olib boradi. Xunxorshoh bu cholning Go'ro'g'li ekaniga ishonqiramaganida Qaldirg'och maston shunday deydi: "hu, Xunxor, buning ikkita pari bor, qadimgi xosiyatli yo'q bo'lib ketgan qushlarning nusxasi. Oq parni betiga surtsa, yigit bo'ladi, shunday qilib, oq parni yuziga suykab, bobo bo'lib yuribdi. Agar shunday qilmasa, buni hamma taniy beradi-da".

Ko'rinadiki, qush pati epic qahramonga o'z ko'rinishini o'zgartirish imkonini beruvchi, unga magik xususiyat baxsh etuvchi, baxt va omad keltiruvchi epic vosita vazifasini bajaradi. Qahramonning bu g'aroyib ashyoga ega bo'lishi lavhasi ham turlicha motivlashtirilgan bo'lib, epic homiylarning ehsoni, afsonaviy qush tomonidan poloponlarning qutqarilishi evaziga berilgan hadya yoki bevosita topib olingan narsa sifatida talqin qilinadi. Bu epic motivning mifologik asoslari qush patining magik xususiyati haqidagi xalq qarashlariga borib tarqaladi.

Zero ukki, boyo'g'li kabi qushlarning patlarini yosh bolalarning do'ppisiga taqib qo'yish, ko'kyo'tal bo'lgan bolalarga ko'kqarg'aning pati ivitilgan suvdan ichirish, kelinchaklarning boshiga pat qistirish kabi udumlar ham qush kul'tiga ishonish va parning magik xossaga egaligi haqidagi ishonchlar asosida kelib chiqqan. Folklorshunos B.Sarimsoqovning fikricha, patni tutish orqali Semurg'ni chaqirib olish motivining genetic asosi "o'luvchi va qaytadan tiriluvchi tabiat haqidagi qadimiy qarashlar"ga borib tarqaladi.

Bizningcha, qush patining magik xususiyati bilan bog'liq xalq qarashlarini o'zida mujassamlashtirilgan epic motivlarning genetic ildizlari animistic tasavvurlarga bog'lanadi. Ajdodlarimiz odam yoki biror jonivor o'lgach, uning ruhi tanasining muayyan qismlarida saqlanib qoladi deb o'ylaganlar. Ana shu qadimiy tasavvurlar asosida yaratilgan animitik miflarning arxaik shakllari shakllari "Avesto"da ham o'z ifodasini topgan. "Baxran yasht"ning XVI faslida tasvirlanishicha, Varag'n nomli afsonaviy qushning pati sehrli xususiyatiga ega bo'lib, kishini dushmanning jodusidan sehrlanib qolganimda, qutulmoqning chorasi bormi?"-deb so'raganida, u shunday javob beradi:

“Qanoti keng Varag’n,

Qushning oltin patin-

Patini ol, o, Zardo’sht,

Astoydil qilib ixlos,

U bilan taning siypab,

Dushmaning jodusidan

Bo’larsan butkul xolos.”

Varag’I qushning pati bilan tanini siypab qo’ygan kishiga dushmanning har qanday jodusi ta’sir qilmas ekan. “Avesto” mifologiyasi talqiniga ko’ra, kimda shu pat bo’lsa, omad uni sira tark etmaydi, hamisha ishi o’ngidan kelib, jang maydonida ham doimo qo’li baland kelaveradi. Qudratli Varag’n qushning patigina emas, hatto suyagi ham ana shunday sehrli kuchga ega:

Bu pat bizga xayrli,

Qudratli Varag’nning,

Kuchli qushning so’ngagi-

U ham hatto sehrli.

Kimga madadkor bo’lsa,

Kimga omad yor bo’lsa,

Uni qo’llar mehr-la

Muqaddas qushning pati.

Uni o’ldira olmas,

Hech vaqt qotilu g'addor,

Pat kimda bo'lsa agar,

Uni qatl ololmas-

U barcha yovin yengar!

Varag'n qushining pati tufayli Faridun uch boshli Zahhokni mag'lub qilgan. Chunki bunday pat sohibiga hech qanday yovuz kuch dahl qilolmaydi. "Go'ro'g'li" turkum dostonlarida epic qahramonga homiylar tomonidan hadya etilgan sehrli parlar ham Varag'n qushning pati singari magik xususiyatga ega. "Avesto"dagi Faridun sehrli patlar ko'magida ajdahoni mahv etgani kabi Go'ro'g'li ham o'z epic dushmanlarini yengishida ana shu parlarning sirli hosiyaatidan foydalanadi.

O'zbek xalq ertaklari va dostonlaridagi sehrli par detalining epic vosita sifatida syujet tizimidan joy olishi bevosita "Avesto" mifologiyasiga, aniqrog'i Varag'n qushning omadbaxsh patlari to'g'risidagi inonchlarga borib taqalishini isbotlaydigan yana bitta dalil bor. "Baxran yasht" alqovida aytilishicha, Varag'n qush hamda adolat, imon qo'riqchisi, qahramonlik va omad timsoli Varaxranning ikkitadan sehrli pati mavjud. Ana shu patlar bilan tanini siypagan zotlar qudratli va omadbaxsh bo'ladilar:

Bu ikki himoyatning,

Asraguvchi juft zotning,

Ikkitadan pati bor,

Yopiq keng qanoti bor.

Muhtojni yelpib o'tar

(Unga sig'inuvchini),

Patlari sepilib o'tar,

Asta siypalab o'tar.

Kishiga omad va jangovar qudrat bag'ishlovchi Varag'n qushning g'aroyib patlari to'g'risidagi e'tiqodiy qarashlar dastlab zardushtiylikdan avvalgi animistic tasavvurlar asosida shakllangan bo'lib, yashtlar orqali yetib kelgan bu qadimiy mifologik inonchlarni xalqimiz orasida keng ommalashishi natijasida sehrli pat bilan bog'liq an'anaviy epic motivlar kelib chiqqan.

“Avesto”da ajdodlarimizning suv, olov, o'simlik va samoviy jismlar bilan bog'liq qadimiy qarashlari ham o'z ifodasini topgan. Xususan, suv va hosildorlik timsoli Ardivisura Anaxita, “bepoyon o'tloqlar sohibi” deb ta'riflangan quyosh mabudi Mitra, zamin uzra yomg'ir yog'dirib, daryolaru chashmalarni sersuv qiluvchi oq tulpor suvratidagi charog'on yulduz-Tishtriya va ezgu iloha Asha obrazlarining betakror talqinlari asrlar davomida xalqimiz qalbiga ma'naviy komillik baxsh etib kelgan. Tabiat kul'tlari bilan bog'liq mifologik tasavvurlikning zardushtiylik davridagi izchil rivoji davomida bir qator qadimiy udumlar kelib chiqqan. Bu an'anaviy retuallar negizida keyinchalik o'zbek marosim folkloridagi ayrim janrlar shakllangan. Yomg'ir chaqirish maqsadida o'tkazib kelingan Sust xotin marosimi folkloridagi ayrim janrlar shakllangan. Yomg'ir chaqirish maqsadida o'tkazib kelingan Sust xotin marosimi, Amudaryo suvining mo'l bo'lishi hamda toshqin halokatining oldini olish maqsadida Orolcha avliyo degan joyda shu nom bilan ataluvchi afsonaviy homiy sharafiga ho'kiz so'yib qurbonlik qilish, navro'z bayramini o'tkazish, sumalak pishirish, bahor faslida

an'anaviy gul sayllari (boychechak sayli, lola sayli, guli surh, qizil gul sayli kabilar)iga chiqish, safar qochdi va oxir chorshanba marosimlarini o'tkazib olovdan xatlash, shamol piri sifatida e'tirof etilgan Haydar yoki Ajdar boboga murojaat qilib, shamol chaqirish, marhumlar mozoriga "qushlar haqi" deb bug'doy sepib qo'yish, daryodan o'tayotganda Hubbiga sig'inish va suvga tuz tashlash, dalaga birinchi qush chiqarishdan avval ho'kizlarning shoxini moylash kabi an'anaviy marosim va udumlarimizning tarixiy asoslari bevosita zardushtiylik rituallari hamda "Avesto" mifologiyasining e'tiqodiy inonchlar tizimidagi talqinlariga bog'lanadi.

Demak, "Avesto" Sharq xalqlarining badiiy-estetik tafakkuri taraqqiyotida muhim rol o'ynagan buyuk ma'naviy qadriyatlarimizdan biri bo'lib, o'zbek xalq og'zaki poetic ijodiyotining rivojlanishiga ham kata ta'sir o'tkazgan. Ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida yaratilib, mukammal e'tiqodiy inonchlar tizimi sifatida shakllanib kelgan qadimiy mifologik qatlam bu muhtasham yodgorlikning tub asosini tashkil etadi. Tabiat kul'tlari, samoviy qarashlar, ezgulik va yovuzlik kurashini aks ettiruvchi dualistic tasavvurlar, hosildorlik va halol mehnat g'oyasini o'zida mujassamlashtirgan qadimiy inonchlarning "Avesto"dagi talqinlari ham aslida xalq ijodiyotining mahsulidir. Zero, xalq og'zaki ijodi sarchashmalari asosida yaratilgan "Avesto"ning obrazlar silsilasi, syujet va motivlar tarkibi o'zbek folklori epic janrlarining tarixiy taraqqiyotiga ham salmoqli hissa qo'shgan. Shuning uchun ham "Avesto" xalqimizning badiiy-estetik tafakkuri taraqqiyotiga asos bo'lgan ulkan ma'naviyat xazinasi sifatida qadrlidir.

2. O'ZBEK FOLKLORIDA GOVMARD OBRAZI

Ajdodlarimizning buyuk ma'naviy obidasi hisoblangan "Avesto" mifologiyasi o'zbek folklori obrazlar tizimining shakllanishi va taraqqiyotida muhim o'rin tutgan. Xususan, xalqimiz orasida Jo'mard qassob, Jonmardi qassob, Gavmard deb ataluvchi va ayrim joylarda qassoblarning piri sifatida e'tirof etiluvchi mifologik personaj bilan bog'liq tasavvurlarning qadimiy asoslari ham bevosita "Avesto"dagi ilk foniy odam-Gaya Martin obraziga borib tarqaladi.

Ma'lumki, Gaya Martan zardushtiylikda yer yuzida yashagan birinchi odam sifatida tasavvur qilingan bo'lib, o'rta asr manbalarida Gavomard, Gayomat, Gopatshoh, Qo'bodshoh yoki Qayumars, manixey matnlarida esa Gexumard tarzida tilga olingan. Bu mifologik personaj haqidagi eng qadimgi afsonalar to'la saqlanib qolmagan bo'lsa-da, zardushtiylikka oid turli xarakterdagi matnlarda Gavomardning mifologik tabiatiga doir qiziqarli ma'lumotlar mavjud. "Avesto" mifologiyasi talqinicha, Axuramazda tomonidan yaratilgan beshinchi ibtido ilk Buqa bo'lib, Bamisoli oydek nurafshon bu oq buqa Daitiya daryosining sohilidagi Ar'yana Vejada, ya'ni zaminning o'rtasida yaratilgan. Pahlaviy matnlarida bu jonivorning nomi Evagdat deyilgan.

Axuramazda tomonidan vujudiy ibtidolarning oxirgisi birinchi odam, ya'ni Gaya Martandir. Quyosh yuzli bu odam ham Daitiya daryosining bo'yidagi Ar'yana Vejada yetmish kun mobaynida yaratilgan. Odam daryoning chap sohilida, buqa esa o'ng qirg'og'ida turgan. "Katta Bundaxishn"da aytilishicha, Axuramazda Gaya Martan bilan buqani tuproqdan bino etgan. Nur va Samoviy namlikdan esa odam hamda qoramolning urug'ini yaratib, yer yuzida inson va jonivorlar nasli ko'paysin uchun uni Gaya Martan bilan Buqaning tanasiga joylashtirgan. Ibtido haqidagi mifning "Rivayat" va "Shayast na-shayast" kabi pahlaviy manbalari talqiniga ko'ra, Ormazd dastlab butun olamni o'zining vujudiga jo etgan. Ikkinchi uch ming yillik davomida esa u o'z kallasidan-

osmonni, oyog'idan-zaminni, ko'z yoshlaridan-suvni, sochlaridan o'simliklarni, o'zining ilohiy ongidan-olovni, qo'lidan esa birinchi Buqani yaratgan.

Gaya Martan o'n besh yoshli o'ktam o'g'lon qiyofasida namoyon bo'lgan, Buqa ham, Gaya Martan ham daryo qirg'og'idan bo'ylariga barobar uzoqlikda turganlar. Uch ming yil davomida Gaya Martan faqat ezgu ishlar bilan mashg'ul bo'lgan, ya'ni yer haydab, buqani parvarish qilgan. Buni ko'rib turgan Axuramazdaning dili o'rtangan, chunki birinchi odam bilan ilk buqaning umri boqiy emas edi. Qachonlardir zamin uzra yovuzlik kuchlari xuruj qilajagini, Gaya Martanning naslidan tarqayajak odamzotni duruj va devlar bilan bo'ladigan og'ir jangler kutayotganligini, qirg'oqchilik, sovuq, qishning ayozli izg'irinlari bo'lishini Axuramazda yaxshi bilgan. Ammo Gaya Martan ham, buqa ham o'zlarining bu dunyoda foni ekanliklaridan bexabar bo'lishgan.

Yovuzlik kuchlari bir necha bor Angraman'yuni ezgu o'zgu amal va ezgu so'z sohiblariga qarshi kurashga undaydi. Ammo, yovuz ruh Gaya Martandan qo'rqardi, shu bois Axuramazdaga qarshi borishga yuragi betlamagan. ikkinchi uch ming yillik poyoniga yetib deb qolganda maston kampir qiyofasidagi yovuz dev Jax dunyoga kelgan. "Bundaxishn"da aytilishicha, Jax uch ming yildan buyon yer ostida yotgan Angraman'yuning oldiga borib: "Qani, ota, o'rningizdan turing! Men ezgu ishlar qiluvchi odam bilan uning ho'kizi boshiga shunday kunlarni solayki, dunyoga kelganiga pushaymon qilishsin! Men ularning farnini o'g'irlab, hayot shamini so'ndirgayman. Tuproqni bulg'ab, suvni ifloslab, nabotot olamini toptab, Axuramazdaning olovini o'chirgayman!"-debdi. Bu so'zlarni eshitgan Yovuz ruh jonlanib, o'zini kurashga chog'lagan. Shu tariqa uchinchi uch ming yillik boshlangan.

Quyosh hamal burjiga kirgan daqiqada, ya'ni fravashilar oyi (farvardin)ning birinchi kuni Angraman'yuning zamin uzra huruji boshlangan. Kecha bilan kunduz tenglashgan o'sha daqiqada yovuz ruh ilon ko'rinishiga yevrilib hamla qilgan. Yer yuzini turfa zaharli jonzotlar bosib ketgan.

Kasallik, qurg'oqchilik, o'lim, adovat devlari butun olamga yoyilgan. O'simliklar qovjirab qolgan, yovuz Ruh olovni o'chirgan. O'lim devi Asto Vidot esa odam bilan ilk Buqaning yana o'ttiz yillik umri bor ekan. Shu bois Asto Vidot qanchalik harakat qilmasin, ezgulik timsollariga chang sololmagan.

Shundan keyin yovuz Ruh samoga hujum boshlagan. Dastavval, u Ahuramazda asos slogan ezgu olamni barbod etish ishtiyoqi bilan yongan son-sanoqsiz pairikalarni yaratgan. So'ngra sayyoralar, dumli yulduzlar va uchar yulduz (meteorit)larni yaratib, osmonga sohib yuborgan. Ular yulduzlar bilan aralashib ketib, samoviy kengliklarda tartibsizlik boshlangan. Mush nomli yovuz parika ko'rshapalak suvratiga kirib, qop-qora qanotlari bilan quyosh, oy va yulduzlar yuzini bekitmoqchi bo'lgan. Yer yuzida turib, osmonda bo'layotgan hayot-mamot jangini kuzatib turgan Gaya Martanning ko'ziga butun olam zimistonga aylanayotgandan bo'lib tuyulgan. Bundan foydalangan Asto Vidot avval birinchi buqani, so'ngra Gaya Martanning ko'ziga butun olam zimistonga aylanayotgandan bo'lib tuyulgan. Bundan foydalangan Asto Vidot avval birinchi buqani, so'ngra Gaya Martanni o'ldirgan. Buqaning tanasidan ellik besh xil donli ekinlar va o'n ikki xil dorivor o'simliklar paydo bo'lgan. Gaya Martanning vujudidan esa oltin va boshqa metallar hosil bo'lgan.

“Bundaxishn”da bayon qilinishicha, Gaya Martanning bosh suyagidan-qo'rg'oshin, qonidan-bronza, miyasidan-kumush, oyog'idan-temir, suyaklaridan-qalay, yog'idan-shisha, yelkasidan-po'lat, uchib ketgan jonidan esa oltin paydo bo'lgan emish.

Zardushtiylik mifologiyasi talqinicha, Gaya Martan jon berar ekan, chap tomonga yon boshlab yotgan va shunda uning urug'I yerga to'kilgan. Bu urug'larni oftob poklagan, Nerposang bilan Spendarmaz esa uzoq yillar davomida avaylab asraganlar. Oradan qirq yil o'tgach, ikkita o'simlik ko'karib chiqib, bir-biriga chirmashib o'sa boshlagan. So'ngra bu o'simliklar odam suvratiga enib, ayol bilan erkakka aylangan. Shu tariqa yer yuzida insoniyat paydo bo'lgan.

Avestoshunoslar e'tirofiga ko'ra, Gaya Martan atamasi foniy odam ("ya'ni o'linga mahkum etilgan") degan ma'noni bildiradi. Xususan, L.A.Lelekovning fikricha, Gayomart obrazining genetic ildizlari qadimgi hind-eron mifologiyasiga aloqador bo'lib, "Veda" asotirlarida tasvirlangan Martanda bilan mushtarak jihatlarga ega.

Zero, Gavomard, Gopatshoh, Gilshoh, Qayumars singari personajlar ham Gaya Martan bilan genetic jihatdan aloqador bo'lib, yer yuzida yaratilgan ilk odam va birinchi buqa to'g'risidagi mifologik tasavvurlarning ko'p asrlik tadrijiy taraqqiyotini o'zida mujassamlashtirgan obrazlaridir. Yarim odam, yarim buqa suvratida tasavvur qilingan Gopatshoh obrazining tarixiy asoslari Gayomard haqidagi qadimiy mifik qarashlarga aloqadorligini to'g'ri qayd qayd qilgan K.V.Trever bu obrazning arxaik shakli, ya'ni Gavomard-"Buqa odam" ajdodlarimizning totemistik ishonchlari asosida kelib chiqqan deb hisoblaydi.

Bizningcha ham, ana shu fikr haqiqatga yaqin. Chunki jaahondagi eng qadimiy dehqonchilik madaniyati shakllangan o'lkamizda jonivorlarni, xususan, xo'kizlarni qo'lga o'rgatish va ulardan yerga ishlov berishda foydalanish an'anasining vujudga kelganligi hosildorlik va qut-baraka bilan bog'liq agrar inonchlar tizimida bu jonivor kultining yuzaga kelishiga asos bo'lgan. Zaminda birinchi odam va uning hamrohi hisoblangan ilk buqaning yaratilishi to'g'risidagi hamda qo'sh surib, dehqonchilik qilish udumining urf bo'lishi to'g'risidagi afsonalar zahirida hosildorlik kul'ti va totemistik qarashlar yotadi. Shu bois ajdodlarimizning mifologik tasavvurlari tizimida birinchi buqa totem jonzot timsoli sifatida talqin qilingan bo'lishi kerak. Nazarimizda, ilk odam bilan buqaning yaratilishi to'g'risidagi zardushtiy asotirlari ham totemistik inonchlarning mifologik tasavvurlar silsilasidagi izchil rivoji natijasida yuzaga kelgan. Bu syujetning arxaik variantida Daytiya daryosi (bizningcha, bu Amudaryo ekanligiga shubha yo'q)ning chap qirg'og'ida Gaya Martan, o'ng sohilida esa odam boshli afsonaviy jonzot-ilk buqa turganligi bayon etilgan, deb o'ylaymiz.

Mamlakatimiz hududida olib borilgan arxeologik qazuv ishlari chog'ida odam boshli, ho'kiz sayratli afsonaviy jonzotlarning haykalchalari ko'plab topilganligi ham Gavomard (buqa odam) kul'ti ajdodlarimizning agrar marosimlari va totemistik inonchlari tizimida muhim o'rin tutilganligini ko'rsatadi. Xususan, 1939-yilda Samarqand yaqinidagi Tali Barzu shaharchasi harobalarini o'rgangan G.V.Grigoryev tanasi ho'kiz, boshi esa soqolli odam ko'rinishidagi mifologik personaj tasviri tushirilgan kata spool idish sinig 'ini topgan edi. L.I.Rempelning ma'lumotlariga qaraganda, Gomard tasviri qadimiy muhrlardan birida ham uchraydi. Unda boshi soqolli odam ko'rinishidagi buqaning shaxdam yurib borayotgan holati tasvirlangan.

Odam boshli ho'kiz shaklidagi haykalchalar Xorazm viloyati hududidan ham topilgan. Xususan, Shovot tumanidagi miloddan burungi U-IIIasrlarga mansub qadimiy qal'a xarobalaridan ho'kiz tanali, odam yuzli haykalcha topilgan. Tuproqqal'adan topilgan haykalchalardan birida esa bosh qismi odam yuziga o'xshash qilib, ishlangan ho'kiz tasvirlangan. Shuningdek, Sulton Uvays tog'laridan topilgan ustun qoshida ham yuzi sersoqol odamga o'xshash ho'kizning oyoqlarini yig'ib yotgan holatdagi tasviri mavjud. Ana shularning barchasi o'lkamizda yashagan qadim ajdodlarimizning dehqonchilik madaniyati bilan bog'liq an'analari tizimida ho'kiz-odam, ya'ni Gavomard kul'ti muhim rol o'ynaganligini ko'rsatadi.

Gavomard kul'tining muayyan izlari xalqimizning chorvachilik xo'jaligini yuritish bilan bog'liq an'anaviy marosimlari hamda qassoblarning piri haqidagi mifologik tasavvurlarida ham o'z ifodasini topgan.

Xususan, afsonalarga ko'ra, birinchi marta mol so'yib, odamlarni go'sht yeyishga o'rgatgan kishi Jo'mard qassob bo'lib, Xo'jayli shahridan Ko'hna Urganchga qarab ketadigan yo'l bo'yidagi Mizdakxon qabristonining o'rtasidagi tepalik ana shu mifologik homiy kul'ti bilan bog'lanadi. Etnograf YU.V.Knozorov tomonidan o'tgan asrning 40-yillarida yozib olingan afsonaga ko'ra, bu tepalikka

Jo'mard qassob degan kishi dafn etilgan. U juda sahiy, qo'li ochiq kishi bo'lib, odamlarga tekinga go'sht ulashib chiqar ekan. Mahalliy aholi orasida mavjud bo'lgan e'tiqodiy inonchlarga qaraganda, Jo'mards qassob tepaligi mollarni turli kasalliklardan xalos qiladigan va ularni quvilib ketishidan saqlaydigan mo'tabar joy hisoblangan. Shu bois chorva mollari orasida kasal tarqalsa, suruv va podalarni haydab kelib, Jo'mard qassob tepaligi atrofidan aylantirganlar.

1987-yilda Jo'mard qassob tepaligida arxeologik qazuv ishlari o'tkazildi. Natijada qadim zamonlarda bu yerda balandligi to'rt metr, eni qirq metr keladigan sun'iy tepa barpo etilganligi va u zardushtiylik udumlari bo'yicha dafn marosimlari o'tkaziladigan joy vazifasini bajarganligi aniqlandi. Tepalikning yuza qatlamidan topilgan ossuariy qoldiqlari, shuningdek, uch yuz metrcha naribroqda odam suyaklari solingan qadimiy astadonlarning ko'plab topilganligi ham Jo'mard qassob tepaligi zardushtiylikning ritual marosimlaridan biri-marhumlarning suyagi etidan tozalanadigan maxsus joy-dahma vazifasini bajarganligini tasdiqladi.

Jo'mard haqidagi afsonaning nisbatan tugal variant etnograf G.P.Snesarov tomonidan Ko'hna Urganchdan yozib olingan. Hikoya qilinishicha, Jo'mard Navishirvon (ya'ni Anushirvon) davrida yashagan bo'lib, kunduzi qassoblik qilar, kechasi esa podshoning hufyasi vazifasida xizmat qilib, yomon odamlarni tutib kelar ekan. Jo'mardning otasi Salasa, bobosining oti esa Solis bo'lgan. Ularning shajarasi Ho'shamshohga borib tarqalar ekan. Afsonada aytilishicha, Ho'shamshoh devlar tomonidan o'g'irlab ketilgan bo'lib, o'n sakkiz yil mobaynida tutqunlikka saqlangan. U ana shu vaqt davomida devlardan yetmish ikki hunarni o'rganibdi, mol terisidan kiyim tikish, jundan mato to'qish, egar yasash, tog'lar bag'ridan ma'danlarni qidirib, toppish va qazib olish, cho'yan, po'lat eritish, hamir qorib, non yopish, soch olish kabi hunarlarni puxta o'zlashtiribdi. Bir kuni devlar Ho'shamshohga: "ho'kiz terisini olib, ustingga shunday yopginki, u bus-butunligicha qolsin!"-deb buyuribdilar va buning uchun qoramolni qanday qilib so'yishni o'rgatibdilar. Shunday qilib, oradan o'n sakkiz yil o'tgach,

Ho'shamshohning navkarlari kelib, uni devlar tutqunidan ozod qilibdilar. U o'z yurtiga qaytib kelgach, devlardan o'zlashtirgan barcha hunarlarini odamlarga o'rgatgan emish.

Ho'shamshohning o'n yettinchi avlodiga mansub bo'lgan Jo'mard Xorazm xoni tomonidan qul sifatida sotib olinganidan keyin u Amudaryo sohillariga kelib qolgan. U xorazmliklarga zargarlik, duradgorlik, pishiq g'isht tayyorlash, shuningdek, tog'lardan oltin, kumush, temir va boshqa ma'danlarni qazib olishni o'rgatgan. Voha ahli mol so'yishni ham Jo'mardan o'rgandilar. Aytishlaricha, Jo'mard Jo'mard qassob Usto Xo'rdak nomli bir shogirdi tomonidan o'ldirilgan. U o'z ustozning ovqatiga qo'shib bergan va uning jasadi ustiga katta toshlarni uyub tashlagan. Usta Xurdakning o'zi esa Darg'inotada qazo qilgan bo'lib, mozori o'sha yerda deydilar.

Jo'mard qassob nomi bilan bog'liq mozor va qadamjonlar mamlakatimizning turli joylarida mavjudligi tarixiy-etnografik tadqiqotlarida qayd qilingan. Xususan, O.Suxarevning yozishicha, O'zbekistonning bir necha joyida Jo'mard qassob mozori mavjud. Samarqandliklar esa Jo'mard qassobning mozori va go'sht do'konining o'rni Registon atroflarida bo'lgan deb naql qilishar ekan.

Tarixshunos N.Yo'ldoshevning ma'lumot berishicha, "Buxoro shahrining sobiq To'pxona guzarida Jonmardi qassob degan nuqaddas joy bo'lib, bu mozor islomgacha mavjud bo'lgan va O'rta Osiyoda keng tarqalgan qadamjolardan biri hisoblangan".

Jo'mard qassob to'g'risidagi xalq qarashlari va shu asosda shakllangan afsonalar syujetining qadimiy ildizlari bevosita "Avesto"dagi Gaya Martan-Gavomard obraziga bog'lanishi ilmiy adaboyotlarda to'g'ri e'tirof etilgan. Zero, Jo'mard qassob kul'tining yuzaga kelishi va xalq orasida keng ommalashishida Gaya-Martan obrazining mifologik talqinlari muhim ahamiyat kasb etgan. Jo'mard haqidagi afsona syujetida Gavomard timsoliga xos ayrim mifologik talqinlar ham

saqlanib qolgan. Xususan, Jo'mardning odamlarga tog'lardan oltin, kumush, temir va boshqa ma'danlarni qazib tanasidan turli metallarning paydo bo'lishi haqidagi mifologik tasavvurlarga borib tarqaladi.

Afsonadagi devlarning Ho'shamshohga ho'kiz terisini yopinishni buyurishi motivi ham totemizmga aloqador bo'lib, o'ylashimizcha, qahramonning jonivor terisini kiyishi-totemga yevrilishning ritual usulidir. Zero, ho'kiz terisini kiyish, ho'kiz terisidan tikilgan Tulum ichiga kirish, bir ho'kiz terisiga sig'arlik joy so'rash kabi motivlar o'zbek xalq ertaklari va afsonalarining an'anaviy syujet elementlari sirasiga kiradi. Masalan, "Xo'ja Bozirgon bilan Hasan o'tinchi" ertagida tasvirlanishicha, qahramon ho'kiz terisidan qilingan Tulum ichiga qamaladi. Bu motiv "jasadni ho'kiz terisiga o'rab dafn etish udumining epic transformatsiyasi"dir. Zero, qadimgi Xorazmliklarning dafn marosimida ho'kiz terasiga o'rab ko'mish an'anasi mavjud bo'lganligi etnografik adabiyotlarda qayd qilingan.

Jo'mard to'g'risidagi o'zbek xalq afsonalaridan yana birida bu obrazning qadimiy asoslari "Avesto" syujetlari va totemistik miflarga aloqadorligini ko'rsatadigan muhim detal mavjud. Afsonada aytilishicha, kunlardan bir kun Jo'mard qassob bir nechta avliyo kishilarni o'z oldiga chaqirib, ziyofat beribdi. Odat bo'yicha osh suzilgan paytda taomning avvali eng mo'tabar kishining oldiga qo'yiladi. Jo'mard esa birinchi tovoqni mehmonlar oldiga emas, balki narigi xonaga olib kirib ketibdi. Hayron bo'lgan mehmonlar u qaytib kelgandan keyin buning boisini so'rabdilar. Shunda Jo'mard narigi xonada otasi o'tirganligini, to'ng'iz shaklida bo'lganligi uchun mehmonlar oldiga chiqolmasligini aytib beribdi. Shundan keyin Xo'jai Xizrning karomati tufayli uning otasi o'zining asl qiyofasiga qaytibdi. Jo'mard qassobning otasi jonivor shaklida tasvirlanishi totemistik qarashlar ifodasidir. Zero, xalqimiz orasida "Otang to'ng'iz bo'lsa ham, u yotgan uyning tomiga chiqma", degan maqol ham yuradiki, bu ham zardushtiylik

mifologiyasidagi buqa-odam totemistik timsolining o'zbek folkloridagi epic talqinlaridan biridir.

“Go'ro'g'li” turkumiga kiruvchi dostonlarning birida Rayxon arab ayrituyoq deb ta'riflaganligi bejiz emas. Chunki Gerodot “Tarixi”ning IV-jildida issidonlar o'lkasi haqida yozar ekan, “menga g'alati tuyulgan hikoyalarga ko'ra, tog'da echki tuyoqli odamlar yashar emish” deb qayd qiladi. Turk olimi Abdulqodir Inonning yozishicha, XIII asrda mo'g'ullar o'lkasiga safar qilgan Plano Karpini o'z yo'lnomasida “it boshli, sigir oyoqli bir qavmga duch kelganligi”ni qayd qilgan. Ulug' muarrix Abulg'oziy Bahodirxon ham savash lavhalaridan birini tasvirlar ekan, “it boshli, sigir oyoqligidan boshqa kimki bo'lsa, barisi shu yerda” deb yozadi. Bizningcha, Gavomard ho'kiz tanali, odam yuzli jonzot sifatida tasavvur qilganligi uchun O'rta Osiyo xalqlari mifologiyasida sigir oyoqli yoki ayrituyoq personajlar obrazi kelib chiqqan.

Yarmi odamga, yarmi ho'kizga o'xshagan afsonaviy jonzot to'g'risidagi mifologik tasavvurlar Xorazm ertaklarining obrazlar tizimida ham o'z ifodasini topgan. Xususan, “Gul uzuk” ertagida tasvirlanishicha, ilonlar podshosi turadigan yerdagi “odamlar juda bahaybat, yarmisi odamga o'xshaydi, yarmisi huddi qo'tosga o'xshaydi”.

Xorazmdagi Jumritov oronimi ham Jo'mard mifonimi orqali “Avesto” mifologiyasiga bog'lanadi. “Yo'mritovning Jo'mart bilan hech qanday aloqasi yo'q” deb hisoblab, bu toponimning etimologiyasini imir etnonimidan keltirib chiqarishga urinishi esa o'zini oqlamagan. Bu yer zardushtiylik bilan aloqador marosimlar o'tkaziladigan muqaddas joylardan biri bo'lganligi ehtimoldan holi emas. Nazarimizda, Jo'mritov oronimi aslida Jo'marttov bo'lib, ko'p asrlik lisoniy taraqqiyot natijasida hozirgi fonetik holatiga kelib qolgan.

Bizningcha, chorva mollari kasallanganda suruvni Jo'mard qassob tepaligi atrofidan aylantirish, Amudaryo suvining mo'l bo'lishi va toshqinning oldini olish

maqsadida Orolcha avliyoda ho'kiz so'yib, qurbonlik qilish, Amudaryoning qadimda O'kuz deb atalganligi, voha etnonimikasida ho'kizlar deb atalgan urug' nomi mavjudligi, shuningdek, qo'shga qo'shiladigan jonivorlar ho'kiz sara deb e'zozlanishi ham Gavomard-Jo'mard haqidagi afsonalar syujetning keng ommalashishi natijasida kelib chiqqan an'analar sirasiga kiradi.

Birinchi marta mol so'yib, odamlarga qassoblikni o'rgatgan mifologik personaj haqidagi qadimiy xalq qarashlari buxoroliklar orasida ham bugungi kunga qadar saqlanib qolgan. Xususan, Buxoroning Xay guzaridagi Gavkushon madrasasining bino etilishi haqidagi toponimik afsonada hikoya qilinishicha, bir kun xo'jai Xizr o'zining shogirdi bilan aylanib yurib, bir joyga yetganda "xay-xay" debdi. Shogirdi bu so'zlarning ma'nosini bilmoqchi bo'lganda xo'jai Xizr shunday deydi: "hech kim yo'q joyda "xay-xay" deganimning sababi shuki, bu yerda minglab jonivorlarning qoni to'kilgan. Ular Gavmarddan norozi. Gavmard Baqar do'stini o'ldirib, do'stini dasturxonga tortgan. Shuning uchun odamlar necha ming yillardan beri jonivorlarning go'shtini iste'mol qiladilar. U hayvonlarning ruhi esa qonlari to'kilgan joyda aylanib yuradi. Bu joy bir vaqtlar qushxona bo'lgan ekan, o'sha qonlar "Meni yuving deb!" har o'tganida iltijo qiladi. Bu safar rozi bo'lib, "hay-hay" dedim",-debdi. Shogirdi bu so'zlardan ta'sirlanib o'sha guzar odamlari bilan maslahatlashibdi-da, bu yerdan kattakon hovuz qazibdilar. Bu hovuz necha yillardan beri shu yerda to'kilgan qonlarni yuvib turarmish. Keyinchalik esa bu guzarda Gavkushon madrasasi qurilibdi".

Jo'mard qassob nomining kelib chiqishi esa mifologik afsonalarda shunday izohlanadi: "qadim zamonlarda Gavmard ismli kishi bo'lgan ekan. Uning Baqar degan do'sti ham bor ekan. U bir kuni ertalab uyqudan uyg'onib qarasa, hamma yerlar ko'm-ko'k ekan. Shunda u qari kishilardan: "Bu qanday hol?"-deb so'rabdi. Qariyalar: "Bu navro'z, u qish fasli tugaganidan darak berayapti",-debdi. Shu payt shayton kelib vasvasaga solibdi, Gavmard o'z do'stini o'ldirib, go'shtini pishirib, dasturxonga tortibdi. Boshqa odamlar bo'lsa yerda ko'kargan o'tlardan

ovqat tayyorlab, dasturxonga qo'yibdilar. Gavmardning qilgan ishidan xabar topgan odamlar: "Iloyo, juvonmarg bo'li!"-deb uni qarg'abdilar. Shundan so'ng uning nomi Juvonmarg bo'lib, keyinchalik Jo'mard deb atala boshlagan ekan. Navro'z bayramini nishonlash, dasturxonni ko'katlardan tayyorlangan taomlar bilan bezash va go'shtni iste'mol qilish o'sha vaqtdan qolgan deydilar. Jo'mardni bo'lsa, qassoblar o'zlariga pir deb bilishar ekan".

Bizningcha, mazkur afsona syujeti Gaya Martan bilan ilk Buqaning o'limi to'g'risidagi "Avesto" asotirlarining epic rivoji natijasida yuzaga kelgan. Ma'lumki, Angxro Mayn'yu boshchiligidagi yovuzlik kuchlarining Gaya Martan bilan ilk Buqaga xuruji zardushtiylik taqvimi bo'yicha fravashilar oyining birinchi kuni, ya'ni bahoriy tengkunlikda boshlangan. Bu asotiriy tasavvurning xalqimiz epic tafakkuridagi qoldiq holda saqlangan ko'rinishlaridan biri Gavmardning o'z do'sti Baqarni navro'z kuni o'ldirishi motivida o'z ifodasini topgan. Shaytonning Gavmardni vasvasaga solishi motivi esa alvastinamo ayol ko'rinishida namoyon bo'lgan yovuz dev Jaxning Arximan oldiga kelib, uni ezgulikka qarshi kurashga undaganligi haqidagi qadimiy mifologik qarashlarining epic talqini hisoblanadi. O'zbek afsonasidagi Gavmardning yil yangilanadigan bahoriy tengkunlikda uyqudan uyg'onishi lavhasi bilan uch ming burjiga kirganda yer yuziga chiqqanligi to'g'risidagi mifik tasavvurlar o'rtasida ham bevosita bog'lanish mavjud.

Yuqoridagi tahlillardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, o'zbek folkloridagi Jo'mard bilan bog'liq xalq qarashlari hamda afsonalar syujetining qadimiy asoslari ajdodlarimiz mifologik tasavvurlari silsilasini o'zida mujassamlashtirgan buyuk yodgorlik-"Avesto"da keltirilgan Gaya Martan obrazi to'g'risidagi asotiriy e'tiqodlar zahirida yuzaga kelgan.

3.“Hubbi” obrazining mifologik asoslari

Qadim ajdodlarimizning mifologik tasavvurlari va e'tiqodiy inonchlari tizimida suv kul'ti bilan aloqador asotiriy syujetlar muhim o'rin tutadi. Ana shunday mifologik personajlardan biri Hubbi bo'lib, bu asotiriy obraz bilan afsonalar mamlakatimizning turli hududlarda mavjudligi qayd qilingan. Jumladan, Buxoro shahridan taxminan 40km. chamasida janubiy-g'arbda o'zining shifobaxsh suvli qudug'I bilan mashhur bo'lgan Xoja Ubbon avliyosi va Jondor tumanidagi Oqshix qishlog'idagi Sulton Hubbi qadamjosi haqidagi afsonalar qadim zamonlarda yashagan ajdodlarimizning suv ma'budi haqidagi afsonalar qadim zamonlarda yashagan ajdodlarimizning suv ma'budi haqidagi afsonalar qadim zamonlarda yashagan ajdodlarimizning suv ma'budi haqidagi mifologik tasavvurlari hamda suv kul'tining lokallashtirilishi natijasida yuzaga kelgan.

Shuningdek, Farg'ona vodiysi hamda Ohangaron daryosi bo'ylarida ham ErHubbi to'g'risidagi mifologik tasavvurlar mavjud bo'lgan. Qashqadaryoda esa Qamashi tumanidagi Hubbil tepa degan joyini ham afsonaviy suv muakkili Hubbi kul'ti bilan bog'laydilar.

Daryo suvining mo'l-ko'lligini ta'minlovchi ezgu homiy sifatida tasavvur qilinadigan Hubbi bilan bog'liq asotiriy qarashlar Xorazmda nisbatan to'laroq saqlanib qolgan. Atoqli o'zbek olimi Y.G'ulomov Xorazm vohasining sug'orilish tarixiga doir yirik ilmiy tadqiqotida suv kul'tining mifologik talqinlarini o'zida mujassamlashtirgan qiziqarli bir afsonani hikoya qilgan. Unda aytilishicha, “Faridun va hatto Jamshid podsholik qilmasdan ko'p vaqtlar ilgari Amudaryoda bir yigit yashagan va bu yigit daryoning hokimi bo'lgan. Uning ismi “Hubbi” bo'lgan. Hubbi baliq bilan ovqatlanagan. U bir qo'li bilan baliqni ushlab olarkan-da, uni quyoshga uzatar ekan, baliq

shu ondayoq qovurilar ekan. U y’tti yuz yil davomida Amudaryoda yashagan va bu vaqt ichida hech qanday yovuz jin daryoga yaqinlasha olmagan va hatto u vaqtda chivinlar ham bo’lmagan. Jamshid taxtga o’tirgan vaqtdan boshlab Hubbi dom-daraksiz g’oyib bo’lgan. Uni osmon dengizi bo’lganidan keyin Amudaryoda Hubbining onasi paydo bo’lgan. Ana shu Hubbining onasi birinchi qayiqni qurgan va xalqni daryoda suzishga o’rgatgan. So’ngra Hubbining onasi butunlay ketib qolgan”.

Suv kul’tiga aloqador qadimgi mifologik tasavvurlarni o’zida mujassamlashtirgan bu afsona syujetining ilk variantlari o’lkamizga islom dini kirib kelmasdan avvalgi davrlarda yuzaga kelgan va sug’orma dehqonchilik bilan shug’ullangan ajdodlarimiz orasida keng tarqalgan. Daryo suvining mo’l-ko’lligini ta’minlovchi va uni yovuz kuchlar xurujidan himoya qiluvchi ezgu homiy sifatida timsollashtirilgan Hubbi kul’ti O’rta Osiyoda yashagan qadimgi odamlarning islomdan burungi mifologik e’tiqodlari mahsuli ekanligini Amudaryo kemachiligida urf bo’lgan bir odat ham tasdiqlaydi. Ma’lum bo’lishicha, o’tmishda Hubbining onasi obrazi ham mifologik e’tiqodlari mahsuli ekanligini Amudaryoda suzadigan qayiqqlarning oldingi burjiga uning haykali o’rnatilgan ekan. Y.G’ulomovga yuqoridagi afsonani aytib bergan chollar “Siz Amudaryodagi kata kemalarning-qayiqqlarning uch tomonida soch o’rimi osib qo’yilganini payqamaganmisiz?” deya so’z boshlangan. Ularning aytishlaricha, “ilgari vaqtlarda kemalarning burjida shu xotinning haykali o’rnatilgan. Musulmonlar kelgandan keyin ular bu odatga e’tibor berib, Musulmonlar kelgandan keyin ular bu odatga e’tibor berib, uni yo’q qilishni buyurganlar. Shu vaqtdan boshlab bu haykalning boshini kesib tashlaganlar, faqat uning ikki o’rim sochi qolgan”.

Amudaryo kemachiligida uch tomoni odam boshiga o'xshatib yasalgan qayiqlar ham bo'lgan. Etnograf G.P.Snesarevning fikricha, bunday kema boshi daryo ma'budasi Ardisura Anaxita timsoli hisoblangan. Odatda Amudaryoda suzgan qayiqning boshi ko'pincha cho'zinchoq shaklda yasalgan bo'lib, ilon boshi deb atalgan. Qayiq boshining uchiga otning dumidan qirqib olingan yoli o'rib qo'yilgan. Ot demining o'rimi huddi ayollarning uchlari birlashtirib qo'yilgan ikki o'rim sochini eslatib turgan. Kema boshining soch bilan o'ralgan joyiga oyna o'rnatilgan va har xil chig'anoqlar bilan bezatib qo'yishgan. Ana shunday qadimiy an'anani o'zida aks ettirgan ilonboshining surati Rossiya Fanlar akademiyasining Antropologiya va etnografiya muzeyidagi 1352/245-raqamli kolleksiyada saqlanadi. Qayiqning bosh tomoniga ot demining qillarini boylash dumi "tug' ko'tarish" deb atalgan. Bu tabarruk hisoblanib, ayollarning u yerga borishi man etilgan. G.P.Snesarevning kuzatishlariga qaraganda, qadimgi xorazmliklar orasida "befarzand ayollar kemadagi ilon bosh oldiga pinhona borib, qayiq uchiga bog'langan ot demining yolidan olsa murodi hosil bo'ladi" degan inonch mavjud bo'lgan. Shu bois farzandtalab ayollar kemaga yashirincha kirishgan va kemaning uch tomoniga emaklab borib, ilonboshiga o'ralgan ot yolidan bir tolasini olishgan va uni uylarga olib kelib, isiriqqa qo'shib tutganlar.

Eng qadimgi mifologik afsonalarda Hubbi daryo hokimi yoki homiysi, suvni toshirib, odamlarga kata ziyon yetkazadigan yovuz kuchlarga qarshi kurashuvchi mifologik personaj sifatida talqin qilingan. Amudaryo tubida yashaydi deb tasavvur qilingan aranglar bilan Hubbining jangi to'g'risidagi afsonalarda uning homiylik xususiyati yaqqol ko'zga tashlanadi.

M.V.Sazonovning yozishicha, xorazmlik darg'alar hazrati Nuh payg'ambarni o'zlariga pir deb bilishgan, ammo daryoda suzayotganda, toshqin boshlanganda, kema halokatga uchragudek bo'lsa, xullas, og'ir ahvolga tushib qolgan paytlarida "Sulton Hubbi!"-deya xitob qilishgan.

Hubbini daryo suvlarining homiysi deb bilgan qadimgi Xorazm kemachilari-darg'alarining afsonalariga ko'ra, Hubbining onasi Amudaryoda birinchi qayiqni yasab, odamlarni daryoda suzishga o'rgatgan.

Fikrimizcha, bu mavzudagi afsonalarning ilk namunalarida Hubbining o'zi odamlarga qayiq yasashni va daryoda suzishni o'rgatgan usta sifatida tasvirlangan bo'lishi kerak. Binobarin, xalq qo'shiqlariga ko'ra, daryoda mushkul ahvolga tushib qolgan kishi Hubbini yodga olib, ko'makka chorlasa, Amudaryoning asov to'lqinlari uzra Hubbi namoyon bo'lar va arqon bilan kemani tortib, eson-omon manziliga yetkazib qo'yarmish. Hattoki, arqon qiyib yuborganidan Hubbining yelkalari qip-qizarib ketgan emish. Hubbi obrazi bilan bog'liq bunday mifologik tasavvurlar o'zbek xalq dostonlarida ham o'z aksini topgan. Masalan, "Murodxon" dostonida tasvirlanishicha, qahramon "Kemachining piri yo, Hubbi bobo, endi o'zing bilasan, bu jonimni senga topshirdim!"-deb solni minib, adadsiz suvga kirib, qayiqning jilovini bo'shatib keta beradi. "Bahrom va Gulandom" dostonida ham:

Kemachilar Er Hubbim deb yig'lashar,

Kemasi buzilib, soldan ayrilsa,

Arilar yig'ilib bo'lar parvona,

Uyasi buzilib, boldan ayrilsa.

-degan misralar mavjud.

Ana shu dalillarning o'zi qadimgi mifologiyada Er Hubbi yoki Hubbi kemachilar piri sifatida ham tasavvur qilinganligini ko'rsatadi.

Hubbi haqidagi afsonaning Xorazm versiyasida "Jamshid taxtga o'tirgan vaqtdan boshlab, Hubbi dom-daraksiz g'oyib bo'lganligi" ta'kidlanadi. Zero, Hubbi obrazi zardushtiylikdan avvalgi davrlardagi mifologik tasavvurlar mahsuli bo'lib, afsonalarning syujet silsilasida turli davrlarga oid diniy-mifologik qarashlarning izlarini ko'rish mumkin. Islomiyatdan keyingi davrda yaratilgan afsonalarda esa Hubbining mo'jizalari va sirli yo'sinda g'oyib bo'lishi motivlari rivojlantirilgan.

Xorazm afsonalarining ayrimlarida Hubbi turli mo'jizalar ko'rsatib kishilarni lol qoldiruvchi karomatli yigit, ya'ni shayx hakim otaning o'g'li sifatida gavdalanadi. Hikoya qilishlaricha, hakim ota Boqirg'oniyning uchta o'g'li bo'lib, kenja o'g'lining ismi Hubbixo'ja ekan. Katta o'g'illari otalarining izidan borib, diniy ilmlar bilan mashg'ul bo'la boshlabdilar. Biroq, Hubbixo'ja yoshligidanoq ot minib yurishni, ov qilishni yaxshi ko'radi. Hakim ota Hubbixo'ja darvesh bo'lish o'rniga jangchi bo'ladi deb xavfsirab, ko'p xafa bo'lgan. Ammo uning xavfsirashlari bejiz bo'lib chiqdi. Hubbixo'ja mo'jizalar ko'rsata boshlaydi: suvga botganlarni qutqarar, so'yilgan ho'kizlarga jon qaytarar va hako'zolar qilar ekan. Bir kuni Hubbixo'ja o'z joyidan uzoqroq bir daryoga brogan. Hakim ota uyda o'tirib, uni uch marta chaqirgan. Birinchi chaqiriqqa u javob qaytargan, ikkinchisini javobsiz qoldirgan, uchinchisida otasining qarshisiga yetib kelgan. U birinchi chaqiriqdayoq uyga qarab yo'l olgani, ikkinchi chaqirishida suvga cho'kkanlarni qutqarish bilan ovora bo'lganligidan javob bera olmagini aytgan. Hubbi tomonidan qilingan mo'jizalar otasining g'azabini keltirgan va u Hubbining Xorazmdan chiqib ketishini so'ragan. Hubbixo'ja otasi bilan

vidolashgan va shu ondayoq yerga yotib ko'zdan g'oyib bo'lgan. Ota-onasi bu mo'jizani ko'rib hayron qolganlar. Tangri Hakim otaga murojaat qilib bunday degan: "Uning avlodidan uch yuz oltmishta avliyo chiqar edi, sen bunga to'sqinlik qilding, endi sening bu gunohing yuvilishi uchun qabring ustidan qirq yil mobaynida daryo oqib turishi kerak".

Hakim ota bilan Hubbi o'rtasidagi ziddiyat tufayli qahramonning g'oyib bo'lishi islomiyatning yoyilishi natijasida mahalliy kul'tlar bilan aloqador xalq qarashlarining yangi e'tiqodiy inonchlarga o'rin almashinishining ifodasidir. Hakim ota va Hubbix o'ja haqidagi afsonada qahramonning sirli yo'sinda g'oyib bo'lishi tafsilotlari hikoya qilinmagan. Bizningcha, afsona qahramonining tiriklayin g'oyib bo'lishi aslida qadimiy mifologik tasavvurlar asosida shakllangan motiv hisoblanadi. Xorazmliklar Hubbi g'oyib bo'lgan bo'lsa-da, uning tirikligiga ishonadilar. Masalan, ko'hna urganchlik axborotchilar "Hubbi o'zining ot qo'shilgan aravasida Amudaryoga kirib ko'zdan g'oyib bo'lgan" deb hisoblaydilar.

Etnografik G.P.Sensarev tomonidan yozib olingan bir afsonada syujet tizimining qadimiy uzvlari saqlangan: "hikoya qilishlaricha, Shayx Hakim ota Burhonning go'zal qizi Anbar onaga uylanadi va undan uch o'g'il farzand ko'radi. Kenjasining ismi Hubbi bo'ladi. Otasi bolalarini yaxshi ko'rar, Hubbi esa Anbar onaning sevimligi ekan. Bir kuni Hakim ota o'g'illarini sinab ko'rmoqchi bo'ladi. Shunda onasining chaqirganini eshitgan Hubbi volidasining xuzuriga ancha kechikib keladi. Onasi ancha kechikkanligini sababini so'raganida, u birinchi marta chaqirganida suvga cho'kayotgan kemani qutqarganini, ikkinchi safar esa suv balosidan qutulgan kishilar unga atb qurbonlikka so'ygan ho'kizni tirilganligini aytib beradi. O'z vaqtida yetib kelmaganligi uchun Hubbi otasi bilan chiqisholmay qoladi. Hakim ota uning

uydan chiqib ketishini talab qiladi. Shunda Anbar ona kaptarga aylanadi va uy tomidagi tuynukdan uchib chiqib ketadi”.

E’tibor berilsa, mazkur afsonada Hubbi sharafiga ho’kizlarining qurbonlik qilinishi haqida gap bormoqda. Bu motivning muayyan tarixiy asoslari mavjud. Tarixshunos Y.G’ulomovning qayd qilishicha, “har yili ekish oldidan va yozgi sug’orish mavsumi boshlanishi bilan dehqonlar toshqin o’z vaqtida bo’larmikin yoki kechikarmikin deb tashvishlana boshlaganlar. Ilgarilari toshqin kechikkan vaqtda an’anaviy tantanali ibodat boshlanar edi. Ruhoniylar Xevadan chiqib (bu qadar butun Xorazmga eshitilar edi) Tuyamo’yinning kuyi qismida joylashgan Orolcha avliyoda to’planishar edilar. Ular ruhoniylarga sovg’alar, qurbonlik uchun ho’kizlar olib kelishar edi. O’z ko’zi bilan ko’rganlarning hikoyalariga qaraganda, ibodat qilingach, daryoga suv hudosiga qurbonlik sifatida so’yilgan ho’kizlarni tashlaganlar”.

Hubbining g’oyib bo’lishi haqidagi afsona syujetining qadimiy motivlaridan yana biri qahramonning “kiyimlarini yechib tashlab, kaptarga aylanib uchib ketishi”dir. Ajdodlarimizning qadimiy animistic qarashlariga ko’ra, odam o’lgandan keyin uning ruhi qushga aylanib uchib ketar emish.

Bizningcha, Xorazm afsonalaridagi Hubbining kaptarga aylanishi ana shu qadimiy mifik e’tiqodlarga bog’liq holda kelib chiqqan. Buxoro viloyatining Qorako’l tumanidagi Jig’achi qishlog’ida yashovchi momolar birovning yosh bolasi nobud bo’lganligini eshitishsa, “falonchining bolasi uchibdi” deydilar. Bu iborada ham qadimgi tasavvurlar aks etgan bo’lib, ajdodlarimiz o’limni inson umrining nihoyasi emas, balki hayotning bir shaklidan ikkinchi bir ko’rinishiga o’tish vositasi deb bilishgan. Ularning tushunchasiga ko’ra, jon barhayot bo’lib odam o’lgach, u boshqa narsaga

qushga aylanar emish. Shuning uchun ham qorako'lliklar lahjasida qo'llanilgan "bolaning uchishi" iborasi orqali jonning ko'kka, ya'ni ruhlar olamiga o'tishi nazarda tutilgan. Qul Tegin sharafiga o'rnatilgan bitik toshidagi kata yozuvda ham "qanim qag'an inchailig torug kozg'anin ucha barmis", ya'ni "otam-qog'on shuncha el va yurt qozonib, ucha ketmish (o'lmish)" deyilgan.

Ajdodlarimiz marhum jonining ruhlar olamiga safari uchish harakati orqali amalga oshiriladi deb o'ylaganlar. Qadimgi turkey tilde jannat ma'nosidagi uchmaq so'zi qo'llanilgan. Bizningcha, bu so'zning o'zagi ham aslida uchmoq fe'idan bo'lib, marhumlarning ruhi qushga evrilib narigi olamga uchib o'tishi nazarda tutilgan bo'lsa kerak. Tilimizda ham qush ko'rinishidagi odam jonining qo'rqish natijasida tanadan chiqishi nazarga olingan.

Jon haqidagi bunday tasavvurlardan farqli ravishda Hubbi tirikligida kaptarga aylanib, uchib ketadi. Hubbining kaptarga evrilishi ham o'zbek folklorining an'anaviy epic talqinlari asosida motivlashtirilgan. Fozil Yo'ldosh o'g'lidan yozib olingan "Malika ayyor" dostonida tasvirlanishicha, Go'ro'g'li Zebit cho'lidagi Shopar qo'lida g'aroyib bir qo'rg'onga kirib qoladi. Go'ro'g'li qo'rg'on ichidagi ajoyibotlarni tomosha qilib turganida, "osmondan bir ko'k kaptar quyulib kelib, bir og'nab turib, bir surxayil gardon, ofati jon, pista dahan bir ajib nozanin pari bo'lib" turadi. Go'ro'g'liga o'zining manzil-makonini, nasl-nasabini ma'lum qilganidan keyin yana bir ag'anib turib, kaptar libosini kiyib falakka parvoz qilib uchib ketadi.

Pari va devlarning kaptar ko'rinishida uchib kelishi tasviri o'zbek xalq ertaklarida ham qayd qilingan. Bundan tashqari, xalqimiz orasida

“kaptarlarga ozor berma, ularning parisi bo’ladi”. “parilar kaptar bo’lib, davr solib yuradi” degan gaplar ham bor. Rahmatulla Yusuf o’g’li yozib olingan xalq qarashlariga ko’ra, “devlarning joni kabutar suvratida namoyon bo’lib turadi, deydi. Aytishlaricha, dev nafas olganda joni kabutarday og’zidan kirib-chiqib turarkan, ya’ni nafas chiqarsa, dalaga bir quloch parvoz qilib, nafasini tortsa, tomog’idan kirib ketib turadi”.

Odam jonini qushga o’xshatib tasavvur qilishga asoslangan mifologik qarashlarning izlari xalqimizning dafn marosimi bilan aloqador udumlarida ham saqlanib qolgan: xususan, ayrim joylarda mozarlarga don sepib qo’yadilar, qushlar terib yesin uchun. Hubbining qushga aylanib, uyniing tuynugidan chiqib uchib ketishi motivining tarixiy asoslari ham jonning kabutar suvratida namoyon bo’lishi to’g’risidagi mifologik tasavvurlarga borib tarqaladi. Zero, jonning qush shaklida namoyon bo’lishi qadimgi xorazmliklarga ham ma’lum bo’lgan. Y.A.Rapoportning qayd qilishicha, Xorazmdan topilgan astadon-ossuariylardan birinchi qopqog’ida qush shakli mavjudligi animistic qarashlar ifodasidir. II-III asrlarga oid osori atiqalardan biri, Tuproqqal’adagi devoriy lavhada esa qanotli yosh yigit-siren obrazi tasvirlangan.

Bizningcha, yuz tuzilishi navqiron yigitni eslatuvchi bu qush surati kaptarga evrilib uchib ketgan Hubbi haqidagi qadimgi Xorazm asotirlarining tasviriy ifodasi bo’lishi mumkin. Hubbining g’oyib bo’lishi haqidagi mifologik qarashlar xalq dostonlarida ham o’z aksini topgan. “Oshiq Mahmud” dostonida Hubbi tiriklayin g’oyib bo’lgan avliyo sifatida tilga olinadi:

Odi Ali sakkiz jannat gulidir,

Tirik g'oyib Sulton Hubbi validur.

Sirli ravishda g'oyib bo'lib qolgan Hubbini xorazmliklar G'oyib ota deb ham atashgan. Odatda islomiyatgacha mavjud bo'lgan qadimgi kul'tlar bilan aloqador bo'lgan ayrim qadamjolar va mozorlar nomining unutilgach, bunday joylar G'oyib ota deb yuritila boshlangan.

Endi Hubbi atamasining etimologiyasi xususida ayrim mulohazalarimizni bayon etsak. Etnografik G.P.Snesarevning fikricha, Hubbi leksemasi fors-tojik tilidagi “ob” (suv) so'zidan kelib chiqqan.

Haqiqatan ham Hubbi obrazining mifologik tabiati suv bilan bevosita bog'liqligi, daryo homiysi va kemachilar piri sifatida e'zozlaganligi shu fikrni tasdiqlaydi. Gerodotning yozishicha, skiflar orasida “yer va suv hudosi” Apiga e'tiqod qilish an'anasi mavjud bo'lgan ekan. Akademik S.A.Jebelevning fikricha, skif qavmlari topingan suv va zamin ma'budi nomini bildiruvchi Api atamasi “ob/op”, ya'ni suv ma'nosini anglatuvchi so'zga aloqadordir. Manbalarda qayd qilinishicha, Api yer-suv ilohasining nomi bo'lib, u chashmada namoyon bo'ladigan go'zal ayol suvratida tasavvur qilingan.

Zardushtiylik mifologiyasining shakllanishiga asos bo'lgan qadimgi inonchlarni tadqiq etgan M.Boysning ta'kidlashicha, protohindevropaliklarning asotiriy qarashlari tizimida suv kul'ti ham muhim o'rin tutgan. Ular iloha Apasni daryo va qo'llar suvining timsoli sifatida tasavvur qilishgan.

Amudaryo kul'ti keng ommalashgan qadimgi Xorazm hududida yuzaga kelgan suv muakkili haqidagi mifologik tasavvurning muayyan izlari bugungi kungacha saqlanib qolgan. Ma'lum bo'lishicha, qadimgi Xorazm

mifologiyasida “Xuu” deb yuritiladigan suv hudosining obrazi mavjud bo’lgan. Qoraqalpoq folklorida bu mifologik personajning “xap” shaklidagi ko’rinishi qayd qilingan. Qariyalarning suvi bor ariqlardan hatlab o’tayotganida “hap” deyishi ham ana shu asotiriy qarashlarga bog’liq deb qaraladi.

Bizningcha, Hubbi mifonimning lisoniy-etimologik asoslari qadimgi Amu sohillarida istiqomat qilgan qavmlarning asotirlarida nomi zikr etilgan suv ma’budi va ilohasining ismi Api atamasiga bog’lanadi. Mifonim “suv ma’budi”, “suv timsoli” ma’nosini bildiruvchi “api” leksemesiga “ezgulik”, “yaxshilik” ma’nolarini bildirgan “hu” so’zini qo’shish orqali yasalgan hamda “ezgu Api”, “ezgu suv muakkili” ma’nolarida qo’llanilgan.

Demak, Amudaryo sohillarida rivojlangan dehqonchilik madaniyatini yaratgan qadim ajdodlarimiz mo’l hosil va farovonlik manbai hisoblangan zamin hamda suv muakkili Apini mo’tabarlashtirishgan. Daryoda toshqin ro’y bergan vaqtlarda va sug’orish mavsumiboshlanganda suv ma’budasi sharafiga qurbonlik marosimlarini o’tkazganlar. Natijada xalq inonchlarida obi-hayot, serhosillik va ezgulik timsoli sifatida an’anaviylashgan Api haqidagi asotir va afsonalar ham yuzaga kelgan. Hubbi obrazining mifologik asoslari jahondagi eng qadimgi sug’orma dehqonchilik an’analari kelib chiqqan mamlakatimiz hududida shakllangan hosildorlik kul’ti bilan ham chambarchas bog’liqdir. Chunki Hubbi faqat suv manbaining mifologik timsoligina emas, balki qut-baraka, serhosillik, ezgullik ramzi sifatida ham e’zozlangan.

O’rta Osiyo xalqlari mifologiyasida suv tagida, ko’pincha daryolarda yashaydigan yovuz kuch sifatida tasavvur qilinadigan ubba obrazining genetic ildizlari ham Hubbi to’g’risidagi asotiriy inonchlar tizimiga

daxldordir. Etnograf olim K.Shoniyozevning yozishicha, “qarluq urug’iga mansub o’zbeklarning mifologik tasavvurlariga ko’ra, daryolarning chuqur joylari, ya’ni gumlarida, chuqur jarliklarda, suv aylanib, o’rama bo’lib oqadigan g’arg’alarda ubba deb ataluvchi yovuz ruh yashar emish. U tunda suv bo’yiga yolg’iz kelgan kishini cho’ktirishga harakat qilar emish. Ayniqsa, ko’klamgi toshqin paytlari ubba daryo bo’yidagi odamlarni otanasi, aka-ukasi yoki boshqa bir yaqin kishining ovozi bilan chaqirar, tanish ovozni eshitgan odam esa o’zi bilmagan holda tovush kelgan tomonga qarab ketib qolarmish. Daryo labiga yaqinlashganda esa ubba uni ushlab olib, suv tubiga tortib ketar va cho’kkan odamning qonini so’rib olib, suv tubiga tortib ketar va cho’kkan odamning qonini so’rib, jonsiz jasadini suv betiga chiqarib tashlar emish. Keksalarning xotirlashlaricha, burungi vaqtlarda ubbaga atab qurbonliklar ham qilingan. Ubba bor deb tahmin qilingan joyda qo’y yoki echki so’yib, qonini suvga tashlangan. Shunday qilinsa, ubba odamlarni chaqirmaydi deb irim qilishgan”.Suv ichida yashovchi yovuz ruh-ubba haqidagi demonologik hikoyalar qozoq folklorshunoslari tomonidan ham yozib olingan. Qozoqlar ubba//ubbeni uzun qora soqolli qop-qora odam sifatida tasvirlaydilar. Aytishlaricha, u suv osti olamining podshosi bo’lib, daryoga yaqin kelgan odamni domiga tortib ketar ekan. Suv toshqini, sel yoki suv bilan aloqador boshqa tabiiy ofat ro’y bergudek bo’lsa, odamlar buni ubbaning ishi deb o’ylab, uni insofga chaqirish maqsadida turli irim-sirimlarni bajarganlar. Bizningcha, ubba obrazi genetic jihatdan Hubbi haqidagi mifologik qarashlarning dualistic e’tiqodlar ta’sirida rivojlantirilishi natijasida vujudga kelgan demonologik personaj hisoblanadi. Hubbi bilan bog’liq afsonalar syujetining tarixiy asoslari esa suv kul’ti va hosildorlik, qut-baraka tilash g’oyasini o’zida mujassamlashtirilgan qadimiy xalq qarashlariga borib taqaladi.

4. Aranja bobo kul'tining qadimiy ildizlari

Amudaryoning Pitnak yaqinidagi bir orolchasida Aranja bobo nomli mozor bo'lgan. G.P.Snesarevning qayd qilishicha, xalq orasida bu orolni bevaqt nobud bo'lgan yosh bolalarning ruhi makon qilgan degan afsonalar mavjud. Bolalarning ruhi shu orolchadagi mozorni ziyorat qilish uchun kelgan ayollardan ba'zilarining ko'zlariga ham ko'rinarinish. Shu bois befarzand ayollar Aranja bobo mozorini ziyorat qilib, murodlari hosil bo'lishiga umid qilganlar. Ziyoratga kelgan ayol agar ona bo'lish baxtiga muyassar bo'lsa, kelasi yil shu orolchadagi mozorni ziyorat qilib, uning tug'iga har xil mato bo'laklarini bog'lashgan. Daryodan o'tayotganda esa suvga non va tuz tashlaganlar.

Bizningcha, Aranja bobo haqidagi xalq qarashlari suv va hosildorlik inonchlari bilan bog'liq bo'lib, Amudaryo kul'tiga aloqador mifologik tasavvurlar asosida shakllangan. Mozorning daryo kul'ti bilan bog'liqligini ziyoratchilar tomonidan bajarilgan magik amallar ham tasdiqlaydi: suvga non va tuz tashlanishi daryo suvining mo'l bo'lishi va ofat keltiruvchi toshuv ro'y bermasligi uchun qilingan qurbonlik marosimining qoldiq holda saqlangan ko'rinishidir.

Aranja bobo mozorining farzandtalab ayollar tomonidan ziyorat qilinishi esa serfarzandlik va hosildorlik g'oyalarning mushtarakligi haqidagi qadimiy xalq qarashlari mahsulidir. G.P.Snesarevning yozishicha, "bahor mavsumida Amudaryo suvining sathi ko'tarilib, ariq va kanallar suvga to'lib oqayotgan paytda befarzand ayollar yaxshi niyat qilib ariqlardan hatlaganlar". Suv to'la ariqdan hatlash-Amudaryodan o'tish rituali asosida kelib chiqqan magik harakatdir.

Xalq orasida Aranja bobo to'g'risidagi afsona yoki mifologik qarashlar saqlanib qolmagan bo'lsa-da, mo'l hosil va farzand tilash g'oyalari bilan bog'liq holda timsollashtirilgan bu muqaddas joyning nomini bildiruvchi atama qadimiy asoslarga ega bo'lishi kerak.

Bizningcha, "Aranja" mifotoponimining lisoniy-etimologik tarkibi "aran"+ja//cha uzvlaridan iborat. Mifonimning etimologik asosi aran so'zida mujassamlashgan bo'lib, -ja(=cha) kichraytirish ma'nosini anglatuvchi qo'shimchadir (-cha qo'shimchasi Xorazm viloyatining muqaddas qadamjo va mozorlaridan ayrimlarining nomini bildiruvchi toponimik atamalar tarkibida mavjud. Mas.:Orolcha avliyo kabi).

"Aran" so'zi esa aslida "arang" tarzida qo'llanilgan bo'lib, Amudaryoning "Avesto"da qayd qilingan nomining fonetik o'zgarishga uchragan shaklidir. S.P.Tolstovning yozishicha, "Avesto"da ranga yoki Arang atamalari bilan yuritilgan daryo Amuning o'zginasidir. Kirning yurishlari haqida hikoya qilgan Gerodot Amudaryoni Araks deb atagan. Bu tarixiy toponim ham mazkur daryo nomining avestocha shakliga fonetik jihatdan juda yaqindir".

Xorazmning sug'orilishi tarixini o'rgangan Y.G'ulomov esa "Amudaryo qadim zamonlarda har xil nomga ega edi: "Avesto"da Aranxa yoki Arang deyilgan" deb yozadi. Darhaqiqat, "Aravisur yasht"ning 64-bandida quyidagilarni o'qiymiz:

Keng Ranxa suvlaridan

Ardvi Sura namoyon

Bo'ldi go'zal qiz misol

Qomati tik ulug'vor

Go'yo bo'ychan bir nihol.

“Yasht”larni rus tiliga o'g'irgan I.Steblyn-Kamenskiy daryo nomini bildiruvchi bu atamani izohlab, “Ranha-daryo nomi bo'lib, uni Sirdaryo bilan qiyoslash o'rinlidir” deb yozadi. O'zbek olimi M.Isoqov esa bu fikrga qo'shilmaydi. Uningcha, “Ranha-“Avesto”da qaysi daryo ekani aniq emas. i.Steblyn-Kamenskiy Sirdaryo bilan qiyos qilishni taklif qiladi. Lekin bunga keltirgan isboti u qadar kuchli emas”.

Fikrimizcha, Ardvisura Anaxita kul'ti Amudaryo bilan bevosita bog'langan bo'lib, “Avesto”da bu go'zal ilohaning timsoli sifatida namoyon bo'lgan daryoning nomi “Aranha” deb atalgan.

Shunga ko'ra, Amudaryoning avestocha atamasi-Arangha//Arang toponimi bu qadim daryo kul'ti mo'tabar tug'ilgan davrlarda xalq orasida keng ommalashgan. Odamlar Arangha//Arangni mo'l-hosil, farovonlik, to'qlik baxsh etuvchi ulug' ne'mat-obi hayotning mifologik timsoli deb bilganlar. Arangha//Arang qadimgi Xorazm mifologik timsoli deb bilganlar. Arangha//Arang so'zlariga fonetik jihatdan yaqinligi: shu nom bilan ataluvchi mozorning daryodagi orolchada joylashganligi; mozar ziyoratida hosildorlik va serfarzandlik g'oyasi bilan bog'liq magik amallarning bajarilishi hamda daryoga qurbonlik qilish udumining qoldiq holda saqlangan ko'rinishlari (qo'chqor so'yish, suvga non va tuz tashlash) qayd qilinganligi ham Aranja bobo kul'ti bevosita “Avesto” mifologiyasi ta'sirida kelib chiqqanligini ko'rsatadi.

Xorazmliklar orasida Amudaryo ichida yashab, suv sathining ko'tarilib-tushishi, daryo toshuvi va oqim yo'nalishini boshqarib turuvchi ko'zga

ko'rinmas hayoliy mavjudotlar-aranglar haqidagi mifologik tasavvurlar qayd qilingan. Xususan, bu asotiriy obraz bilan bog'liq xalq qarashlari xonqalik M.Safarovdan 1986-yilda biz tomonimizdan yozib olingan quyidagi toponimik afsonada ham mavjud. Unda hikoya qilinishicha, kunlardan bir kuni daryo ichidagi aranglar isyon ko'tarib, suvni toshirib yuboribdilar. Bundan ko'p ziyon ko'rgan odamlar xonqalik bir eshonning yoniga borib, ularni aranglar balosidan halos qilishni so'rab, yolvoribdilar. Eshon kanal bo'yiga kelib qarasa, aranglar suvning ixtiyorini o'z qo'liga olgan, xohlasa, o'zanga qaytaradi. Shunda eshon suvga sho'ng'ibdi. Oradan biro z vaqt o'tgach, suvning yuzi qip-qizil qon bo'libdi: suv yuziga eshonning jonsiz tanasi ham qalqib chiqibdi. U aranglar bilan olisha-olisha, aranglarni yengib, keyin o'zi halok bo'lgan ekan. Shundan so'ng bu kanalning nomi G'azovot bo'lib qolgan ekan.

Ko'rinadiki, mazkur afsonada aranglar daryo suvining oqimini nazorat qilib turuvchi yovuz kuch sifatida tasvirlangan. Aranglar daryoni toshirib, qirg'oqning yuvilib ketishiga sababchi bo'lar, bu bilan odamlarga ko'p tashvish keltirar ekan. Epic qahramonning aranglar bilan olishuvi afsona syujetining yetakchi motivi bo'lib, ezgulik va yovuzlik kuchlarining o'ziga xos epic talqinidan iboratdir. Mazkur syujetning arxaik tipida aranglar bilan kurashuvchi mifologik qahramon obrazi ham mavjud bo'lgan. Chunki arxaik syujetga daxldor bunday mifologik obrazning ayrim qirralari Hubbi haqidagi Xoram xalq afsonalarida uchraydi. Masalan, "Hubbi mozori" afsonasida hikoya qilinishicha, Hubbi har kuni suvga cho'kkan kemalarni qutqarar, daryo tubida yashovchi aranglar bilan olishib, odamlarni toshqin balosidan xalos qilar ekan.

Xorazmliklarning aranglar bilan bog'liq mifologik qarashlariga doir materiallarni to'plashga harakat qilgan etnograf G.P.Snesarevning aniqlashicha, bu g'ayrioddiy mavjudotlar Amudaryo va undan chiqarilgan kanallarni o'ziga makon qilgan deb tasavvur qilinar ekan. Aranglarning shaklu shamoyili, tashqi ko'rinishlari haqidagi mifologik inonchlar saqlanib qolmagan, chunki aranglar odamzodga ko'rinmas, ammo ularning o'zlari suv bo'yida istiqomat qiluvchi kishilarning faoliyatini kuzatib turishar ekan. Daryo suvining ko'tarilib yoki pasayib turishi ham aranglarning ishi bo'lib, hatto qirilib yoki pasayib turishi ham aranglarning ishi bo'lib, hatto qirg'oqlarni yuvib turuvchi dahshatli toshqin, ya'ni degish hamda kemalar halokatiga sabab bo'luvchi po'rtananing hosil bo'lishi ham aranglarning xuruji natijasida ro'y berar emish.

1956-yilda G.P.Snesarev bilan hamsuhbat bilan xonqalik kekxa darg'a Hoji boboning hikoya qilishiga qaraganda, Amudaryoning toshib-ko'pirib oqishiga aranglar sababchi ekan. Aranglar ko'zga ko'rinmas g'oyib ruhlar sirasiga mansub bo'lib, hamisha ko'pchilik bo'lib harakat qilishar ekan. Ularning xuruji avjiga chiqqanda esa daryo toshib, sohilni quvib ketar, qirg'oq yaqinidagi qishloqlar va ekinzorlar suv ostida qolib ketarkan. Bunday paytlarda kemalar qatnovi ham ancha qiyinlasharkan. Aranglar nechog'lik harakat qilishmasin, baribir odamzotning shijoati va mardligi oldida ojiz bo'lib, daryo tubidagi makonlariga qaytib ketisharkan.

Aranglarning mifologik obraz sifatidagi talqiniga doir ma'lumotlar saqlanib qolmagan bo'lsa-da, xalq qarashlarida bu g'ayrioddiy mavjudotlar odamlarga yomonlik keltiruvchi yovuz kuch timsoli sifatida tasavvur qilingan. Janubiy Xorazm o'zbeklarning turmush tarsi va xo'jalik yuritish an'analarini o'rgangan elshunos M.V.Sazonovning, "Amudaryoning eng

chuqur joylarida yashab, uning oqimini boshqarib turuvchi aranglar odamzotga dushmanlik qiluvchi g'ayrioddiy mavjudodlar bo'lib, ular haqidagi tasavvurlar suv kul'ti va suv stixiyasi bilan bog'liq inonchlar sirasiga kiradi".

Xorazm viloyatidan to'langan etnofolkloristik ma'lumotlarga qaraganda, aranglar bir tomondan suv stixiyasi bilan aloqador yovuz kuch deb qaralsa, ikkinchidan, odamlarga obi hayot ulashish, suv taqchil bo'lgan dehqonchilik mavsumida daryo suvining mo'l-ko'lligini ta'minlab turish xususiyatiga egaligi bilan esa ezgu maqsadlarga xizmat qiladi deb ham tasavvur qilinadi. Xonqada aranglarning yashash joyi faqat suv ostida emas, balki quruqlikda ham bo'lishi mumkinligi to'g'risidagi xalq qarashlari yozib olingan. Ularning e'tiqodicha, aranglar ko'zga ko'rinmas ruhlar bo'lib, atrofimizni o'rab olgan tashqi olamning turli go'shalarini o'zlariga makon qilishar ekan. Ular hatto qush uchsa qanoti kuyadigan sahroda ham odamzodga ham duch kelishi mumkin emish, ammo ularning cho'ldagi tashrifi ham suv bilan bog'liq: sahroda yo'ldan adashib, barxanlar orasida suvsizlikdan o'lar holatga kelib qolgan kishiga nogahon yo'liqqan aranglar unga to'yguncha suv berar emish.

Shu bois daryo toshuvi, degish va kemalar halokatining ro'y berishini aranglarning ishi deb o'ylagan odamlar o'tmishda suv tubida yashovchi bu hayoliy mavjudodlarning xurujidan cho'chiganlar. Ba'zan esa g'oyibdan paydo bo'lgan aranglarning himmati tufayli tashnalik azobidan qutulib, olis sahro safaridan omon-eson qaytib kelgan kishilarning g'aroyib hikoyalari afsonalarga oshufta kishilar dilida bu ajib ruhlarning nogahoniy madadiga umid uchqunlarini uyg'otgan.

Qadimgi xorazmliklarning turmush tarsi bevosita Amudaryo bilan bog'liq bo'lgani uchun aranglarning suv ostidagi g'ayritabiiy ishlari haqidagi

afsonalar xalq orasida keng tarqalgan. Yovuz kuchlar xurujidan saqlay oladigan mifologik qahramonlarning g'ayrioddiy mo'jizalar ko'rsatib, odamlarni balo-qazolardan asrashi, turli ofatlarning oldini olishi, ezgulikka qarshi kurashuvchi ruhlarni mahv etishi haqidagi inonchlar esa aranglarni o'ziga bo'ysundirgan afsonaviy personaj obrazining yuzaga kelishiga asos bo'lgan. O'zbek mifologiyasining an'anaviy obrazlaridan biri-Hubbi ana shu tipdagi asotiriy personaj sanaladi.

Hubbining mifologik personaj sifatidagi o'ziga xos qirralaridan biri-aranglar bilan kurashib, ularni o'ziga bo'ysundirishidir. Afsonalarda Hubbi o'zining g'ayrioddiy magik kuch sohibi ekanligi tufayli aranglarga qarshi dalil jangga kirib, ularni tezda mahv etganligi, natijada daryo oqimi tinchlanib, kemalar halokatining oldi olinganligi, bog'-rog'lar toshqin ofatidan halos bo'lganligi naql qilinadi.

Qadimgi odam o'zini o'rab olgan tabiatdagi hamma narsa va hodisalarni jonlantirib tasavvur qilgan: uningcha tevarak-atrofdagi barcha narsalarning o'z "egasi" mavjud: suv ham, olov ham o'z "egasi"ning izmiga bo'ysunadi. Nabotot va hayvonot olamini obihayot bilan ta'minlab kelgan hayotbaxsh qudrat timsoli hisoblangan Amudaryoning ba'zan to'lib-toshib oqishi, asov to'lqinlar qirg'oqni ayovsiz yamlab, yutishini ham suv ruhlari xurujining ifodasi deb bilganlar. Shu tariqa daryo tubida yashab, oqimni o'z izmiga bo'ysundirib turuvchi g'ayrioddiy mavjudotlar-aranglar bilan aloqador mifik qarashlar kelib chiqqan. Aranglarning shaklu shamoyili, tashqi ko'rinishi, qiyofasi haqida hech qanday ma'lumot mavjud emasligi ham bu obrazning genetic ildizlari qadimiyligidan dalolat beradi. Chunki animizmning ilk bosqichiga xos xususiyatlardan biri shundan iboratki, odam o'zini o'rab turgan tashqi olamni turli-tuman ruhlar makoni deb bilgan bo'lsa-da, ularning

shaklu-shamoli-yu, tashqi qiyofasini aniq tasvvur qilolmagan: ya'ni tabiiy hodisalar va narsa-buyumlar bilan bog'liq ruhlar haqidagi ibtidoiy qarashlar tabiat stixiyasini o'zida mujassamlashtirgan mifologik obrazlar tizimining yuzaga kelishiga asos bo'lgan. Aranglarning tashqi ko'rinishi tasviriga doir mifologik talqinlar qayd qilinmaganligi ham bu obraz qadimgi odamning tabiatni animistic anglashi asosida kelib chiqqanligini ko'rsatadi.

Endi “aranglar” mifonimining lisoniy-etimologik asosi masalasiga kelsak, bu atama Amudaryoning “Avesto”dagi nomiga aloqador degan fikrdamiz. Chunki “Avesto”da qayd qilingan “Arang” va “Ranga” atamalari Amudaryoning qadimiy nomi ekanligi S.L.Tolstov va Y.G'ulomov kabi olimlar tomonidan e'tirof etilgan.

Amudaryo hosildorlik kul'ti bilan bog'liq mifologik timsol darajasida tasavvur qilingan qadimgi davrlarda daryo suvining mo'l-ko'lligi va oqimning bexavotirligini ta'minlab turadigan g'ayrioddiy kuchga ishonish an'anasi ham shakllangan. Amudaryo-Arang kul'tining keng ommalashishi jarayonida daryoni o'z izmida saqlab turuvchi mifologik mavjudotlar ham suv tubida lokallashtirilgach, daryo kulti va uning animistic talqini haqidagi xalq qarashlari o'zaro uyg'unlashib, yaxlitlik kasb eta boshlagan. Shu tariqa qachonlardir ulug' daryo atamasi sifatida qo'llanilgan “arang” so'zi suv tubida yashab, daryo toshuvi, kemalar halokati va dahshatli degishga sabab bo'luvchi g'ayrioddiy mifologik mavjudotlar nomini anglatadigan bo'lgan.

XULOSA

“Avesto” jahondagi eng qadimgi sug’orma dehqonchilik hamda xonaki chorvachilik xo’jaligi an’analari va ilk shahar madaniyati kelib chiqqan mamlakatimizda miloddan burungi VII-VI asarlarda yaratilgan muhtasham ma’naviy qadriyatimizdir. Bu kitob ezgu o’y, ezgu so’z va ezgu amal g’oyasiga asoslangan qadimiy e’tiqodiy ishonchlar majmui-zardushtiylikning mo’tabar aqidalarini o’zida mujassamlashtirilgan muqaddas bitiklar majmuasi hisoblanadi.

Ajdodlarimizning buyuk ma’naviy obidasi hisoblangan “Avesto” mifologiyasi o’zbek folklori obrazlar tizimining shakllanishi va taraqqiyotida muhim o’rin tutgan. Xususan, xalqimiz orasida Jo’mard qassob, Jonmardi qassob, Gavmard deb ataluvchi va ayrim joylarda qassoblarning piri sifatida e’tirof etiluvchi mifologik personaj bilan bog’liq tasavvurlarning qadimiy asoslari ham bevosita “Avesto”dagi ilk foniy odam-Gaya Martin obraziga borib tarqaladi.

O’zbek folkloridagi Jo’mard bilan bog’liq xalq qarashlari hamda afsonalar syujetining qadimiy asoslari ajdodlarimiz mifologik tasavvurlari silsilasini o’zida mujassamlashtirgan buyuk yodgorlik-“Avesto”da keltirilgan Gaya Martan obrazi to’g’risidagi asotiriy e’tiqodlar zahirida yuzaga kelgan.

Eramizdan oldingi yettinchi asrning oxiri va oltinchi asrning birinchi choragida yaratilgan qadimgi Eron va Turon xalqlarining mushtarak eng ko’hna yodgorligi “Avesto”da ta’lim-tarbiyaning ayrim jihatlari haqida qiziqarli dalillar mavjud. Xususan, ta’limning amaliy mohiyati, ustozning yosh avlod tarbiyasi, jamiyat oldidagi burchi, ma’suliyati haqidagi mulohazalar hozir ham o’z himmatini yo’qotgan emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch.-Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. –Toshkent: O'zbekiston,2010.
3. 2. Karimov I.A. 2012-yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2012-yil, 20-yanvar soni.
4. Bo'riyev O. O'zbek xalqi boqiy qadriyatlari. –Qarshi, 2005
5. Atoulloh Husayniy. Badoyi' - us- sanoyi'. T., 1983.
6. Jalolov G'. O'zbek xalq ertaklari poetikasi. –T.: Fan, 1976. –156 b.
7. Jo'rayev M. O'zbek xalq samoviy afsonalari. -T.: Fan, 1995.-108 b.
8. Afzalov M.I.O'zbek xalq ertaklari haqida.–T.: Fan, 1964. – 121 b.
9. Imomov K. O'zbek xalq nasri janrlari tasnifi //O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1998. - №1. -B. 45-50.
10. [www.http// Literature.uz](http://Literature.uz)
11. [www.http// Geogle.O'zbek adabiyoti.uz](http://Geogle.O'zbekadabiyoti.uz)
12. [www.http // referat.uz](http://referat.uz)